

QALBIMIZ VA QADRIMIZDAGI ULUG' CHINGIZ OG'AMIZ

(O'ngso'z o'rnida)

Qirg'iz ulusi bizning Alisher Navoiyni qanchalik mo'tabar bilsa, Chingiz Aytmatov ham biz uchun shu qadar aziz va qadrdondir.

Dunyodagi biror-bir yozuvchi yo'qki, asarlari o'zbek tiliga Chingiz Aytmatov asarlaridek ko'p tarjima qilingan bo'lsa. Jahonda biror-bir mamlakat ham bo'lmasa kerakki, ijodi O'zbekistondagi qadar deyarli to'kis o'girilgan bo'lsa. Bu o'rinda gap shunchaki tarjima ustidagina ketayotgani yo'q. Keyingi yarim asr mobaynida ushbu ulug' yozuvchidan ta'sirlanmagan, unga ma'lum darajada, o'zi sezgan yoki sezmagani ravishda, iyarmagan kattadan-kichik o'zbek yozuvchisini topish qiyin. Shu vaqtgacha unga bag'ishlangan she'rlar jamlansa, ajabtovur, o'rta hol bir to'plam bo'lishi mumkin.

Chingiz Aytmatovning O'zbekistondagi o'rni uning adiblarimizga ko'rsatgan ta'siri bilangina belgilanmaydi. Yozuvchi o'zbek kitobxonlarining yangi davrda — yangi tipdagi adabiy-badiiy didi shakllanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bugina emas; adib asarlari, umuman, o'zbek xalqining yangi yo'nalishdagi dunyoqarashi shakllanuvda, o'zi va o'zini anglash muammolarini dadil idrok etishda va hech mubohlag'asiz, Istiqlol g'oyalari chuqurroq o'ylash hamda amalga oshirishda, pozitiv ahamiyatga ega bo'ldi.

Birgina misol. Chingiz Aytmatov ijodidagi manqurt obrazi haqida xalqaro miqyosda ham, o'zimizda ham ko'p yozilgan. Shunga qaramay, u haqda men ham ikki og'iz gapirib o'tgim keladi. Uning asaridagi manqurt obrazi, ayniqsa, Sobitjon qiyofasida namoyon bo'luvchi ixtiyoriy manqurtlikning keskin fosh etilishi, nazarimda, XX asrning so'nggi choragida yer

Chingiz AYTMATOV

yuzining qator mintaqalaridagi milliy-ozodlik yo'nalishidagi harakat va dunyoqarashlar o'zgaruvida o'ziga xos o'rinni egalladi desam mubolag'a bo'lmas. Bu obraz dadil va mustaqil ravishda ijodiy ko'zini ochgan o'zimizning Rauf Parfi, Cho'lpon Ergash, Mashrab Boboyev, Tilak Jo'ra, Asqar Qosimov, Shavkat Rahmon, Nurali Qobul, Xurshid Do'stmuhammad, Halima Xudoyberdiyeva, Tohir Qahhor, Usmon Azim, Erkin A'zam va boshqalar ijodiga nechog'lik barakali va faol ta'sir ko'rsatganini faqat mengina emas, boshqa ko'plab adabiyotshunos olimlar ham tasdiqlay oladi.

Ayni vaqtda, Chingiz og'aning o'zbek xalqiga, O'zbekistonga mehr-muhabbati faqat adib sifatdagina emas, davlat va jamoat arbobi, oddiy bir inson va do'st, shuningdek, bilimdon va faylasuf sifatida nihoyatda kuchli va xolis edi. "Qadim-qadimlardan o'zbek madaniyatining O'rta Osiyoga ko'rsatgan ta'sirini ko'hna Vizantiyaning qadim Rusga ko'rsatgan ta'siri bilan qiyoslash mumkin", degan edi buyuk yozuvchi.

Chingiz Aytmatovning o'zbek adiblari bilan og'a-inilarcha tarixiy do'stlik munosabatlari hozir ham, kelgusi avlodlar uchun ham, nazarimda, ibrat namunasi bo'lib qolishga arzigulikdir.

"Manas"dan parchalar tarjima qilgan Mirtemir og'aning mehnati va mahoratiga u to'lqinlanib yuqori baho bergan edi. Toshkentga qisqa vaqtga to'xtab o'tganida ham u Shukrullo va Odil Yoqubov kabi do'stlarini albatta ziyorat qilishni unutmasdi. "Ulug'bek xazinasini", — deydi qirg'iz adibi, — "Yuksak va olijanob proza namunasi... Badiiy quvvati jihatidan salmoqdor bu tarixiy roman meni larzaga soldi... Romanni o'qirkanman, ko'nglimda turkiy xalqlarimiz tarixi uchun iftixor tuyg'usi jo'sh urdi" ("В соавторстве с землей и водой", 1979, с.235). U do'stining yangi yutuqlaridan ham, o'zi mansub turkiy xalqlar tarixidan ham, kezi kelganda g'ururini yashira olmaydigan, fikrini to'lqinlanib izhor qila oladigan buyuk inson edi.

U faqat rasmiy holatlardagina emas, umuman, yaqin tanish-bilishlariga mehrini ayamas, yashirmas edi. 80-yillarning oxirlarida Qirg'izistonda o'tgan xalqaro bir anjumanda, shu yerlik atoqli adabiyotshunos olim, institut direktori Abdug'ani Erkaboyev Chingiz og'a bilan meni tanishtirdi. Shunda og'a mendan: "Shukrullo, Odil, Asil akalar, Nurali yaxshi yurishibdimi?" deb Nurali Qobulning "Юность" jurnalida chop etilgan qissalari haqida iliq fikrlar aytgani yodimda.

G'. Salomov, A. Rashidov, I. G'ofurov, P. Mirzaahmedova, S. Qorayev, S. Umirov kabi adabiyotshunos va tarjimonlar Chingiz Aytmatov asarlarini tadqiq va tarjima qilish borasida O'zbekistonda katta ishlarni amalga oshirdilar. Ibrohim G'ofurov uning so'nggi asarlaridan biri – "Qulayotgan tog'lar"ni bamisoli qo'shiqdek o'zbek tiliga tarjima qildi. Adib bunday mehnatlarning qadriga yetar va hamkorlaridan buni yashirmasdi. "Oq kema", "Jamila", "Alvido, Gulsari!" kabi bir qator qissalarimni Asiljon o'zbekchaga xuddi men qirg'iz tilida yozgandek jarangli tarjima qila oldi" degan adibning fikri tarjimon mahoratiga berilgan baho edi. Keyinchalik, adabiyotshunos olim va tarjimon A. Rashidovning 2008-yilda Toshkentda chop etilgan "Chingiz Aytmatovning badiiy olami" monografiyasi yozuvchining 80 yilligiga o'zbek birodarlarining munosib tuhfasini bo'ldi.

Chingiz Aytmatov ijodini tadqiq etish nuqtayi nazaridan o'zbek olimlari amalga oshirgan ayrim ishlar yozuvchining o'zi tomonidan tan olinib, xalqaro miqyosda e'tirof etilganini ham ta'kidlash o'rinlidir. Bu o'rinda men 2004-yilda Moskovda chop etilgan salkam "Manas"dek hajmli "Ковчег Айтматова" nomli – xalqaro miqyosdagi ulkan olimlar hamkorligida yaratilgan tadqiqot-kitobni nazarda tutmoqdaman. Yozuvchining o'z nazaridan o'tib, ma'qullanib tartib berilgan bu kitobga ikki o'zbek olimi Parizod Mirzaahmedova hamda Saydi Umirovlarning salmoqli maqolalari kiritilganini, o'zbek

Chingiz AYTMATOV

“aytmatovshunosligi”ga xalqaro miqyosda e’tibor topishi sifatida qabul qilinishi mumkin. Parizod Mirzaahmedovanning “Национальная эпическая традиция в творчестве Чингиз Айтматова” nomli monografiyasini yozuvchi juda quvonib, yaxshi baholaganidan xabarim bor. Umuman, bu o‘zbek olimasiga yozuvchining hurmati baland edi. O‘z ijodi haqida Turkiyada o‘tkazilishi mo‘ljallanayotgan katta xalqaro anjumanga uni shaxsan adibning o‘zi taklif etib, ma’ruzasini yig‘in dasturiga kiritilishini tavsiya etgani bu olimamizning mazkur buyuk adib oldidagi hurmatidan darak bera oladi.

Shu o‘rinda Chingiz Aytmatovning O‘zbekiston hayotiga, uning buyuk farzandlari xotirasiga doimo katta hurmat-e’tibor bilan qaraganini ta’kidlagim keladi. Buyuk bobokalonimiz, Amir Temurning 660 yilligi Toshkentda nishonlanganda Turkiston saroyida o‘tkazilgan xalqaro anjumanga Chingiz Aytmatov ham keldi va sohibqironning sohibqiron tabiatidagi tolerantlik va jahon tamaddunidagi roli mavzusida e’tiborga molik ma’ruza qildi. Teran va chuqur mazmunli ma’ruzani maroq bilan tingladik. Ma’ruza matbuotda o’sha vaqtda e’lon qilindimi, yo’qmi, hozir xotiramda yo’q. Lekin ma’ruzaning mashinkalangan nusxasini Parizod opa Mirzaahmedovadan olib o‘qiganim esimda.

...Chingiz Aytmatovdek buyuk insonning ham orzu-umidlari, armonlari bo‘lishi mumkin ekan. Umuman emas, hatto qirg‘iz-o‘zbek yozuvchilari, ayniqsa, yoshlarining do‘stligi, hamkorligi, yaqinlashuvi, hamnafasligi masalasida.

Toshkentda so‘zlagan nutqlaridan birida u shunday degan edi: “Hozir o‘zbek adabiyotida, xususan, yosh o‘zbek adiblari ijodida qanday yutuqlar bor, ular qanday mavzularni qalamga olmoqdalar, qanday yangi yo‘nalishlar mavjud – bundan biz tomondagi tengdoshlaringizning xabari yo’q. Va aksincha, bizda nima gap, yozilayotgan, chop etilayotgan asarlarning mazmuni, g‘oyaviy-badiiy saviyasi qanday – buni sizlar

bilmaysizlar. Bu yurishda bir-birimizdan juda uzoqlashib ketamiz. Bir-birimizni tanimay qolamiz. Borib-borib, bir-birimizga ishonchsizlik, hadik ko'zi bilan qarash boshlanadi. Men aslo bo'rttirayotganim yo'q. Beparvo yuraversak, bir-birimizga intilmasak, shu darajaga tushishimiz aniq. Bu – tuzatish qiyin kechadigan, katta ma'naviy fojia bo'ladi". (Asil Rashidov. Chingiz Aytmatovning badiiy olami. – "O'qituvchi", T.: 2008, 153-b).

Bu fikrlar bamisoli vasiyatdek jaranglaydi. Xalqlarimizni, ijodkorlarimizni, yoshlarni ahillikka, birdamlik va hamjihatlikka chaqiradi.

Chingiz Aytmatov ijodiga mansub o'zbek tilida ilk bor chop etilayotgan ushbu kitob ana shunday yaxshi niyat, qutlug' maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ish sifatida ham e'tiborlidir. Zotan, biz bir-birimizdan uzoqlashuv emas, yaqinlashishga, bir-birimizning qadrimizga yetishga intilishimiz kerak.

O'zbekistonda Chingiz Aytmatovning yangi-yangi qirralarini ochish bo'yicha, umuman, xalqaro "ayt-matovshunos"likka munosib hissa bo'lib qo'shila oluvchi yangi tadqiqotlar paydo bo'lmoqda. Adibning diplomatiya yo'nalishidagi shaxsi va faoliyati ilk bor yoritilgan huquqshunoslik fanlari doktori, davlat va jamoat arbobi Akmal Saidovning tadqiqoti ana shunday.

Qo'lingizdagi yangi kitob ham ana shunday yangi yo'nalishdagi tadqiqotlar yaratilishiga, yozuvchi hayoti, shaxsi va ijodini yanada chuqurroq bilishga, idrok etishga yordam beradi, deb umid qilamiz.

Chingiz og'a xotirasini abadiylashtirish uchun o'z Vatani va undan xorijda ko'plab ishlar amalga oshirilgan, haykallar qo'yilgan. Shulardan faqat bir-ikkitasini eslab o'tgim keladi. Litvada uning xotirasi va hurmatini abadiylashtirish, kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida olti tur yodgorlik kumush

Chingiz AYTMATOV

tangasi zarb etishibdi. Ular “Chingiz Aytmatov”ning o‘ziga, “Jamila”, “Birinchi muallim”, “Ona yer”, “Alvido, Gulsari!”, “Oq kema”ga bag‘ishlangan.

Chamasi, bundan uch yil avval “Aeroflot” tomonidan o‘zining “Boing” rusumli samolyotlaridan biriga Chingiz Aytmatov nomi qo‘yildi. Bu yaxshi, albatta. Lekin hech qanday uchar likobchalaru, uchoq-samolyotlar parvozi Chingiz Aytmatov buyukligidan va asarlarining sha’n-shavkatidan balandroq ucha olmaydi, deb o‘ylayman.

Chingiz Aytmatov davlat va jamoat arbobi, yozuvchi sifatida jahon xalqlarining, san’atkorlarining birodarlashuviga katta hissa qo‘shdi. U tashkil etgan va rahbarlik qilgan “Issiqko‘l forumi” shunday xalqaro tashkilot edi. Chingiz Aytmatov (rais), Odil Yoqubov va qo‘shni mamlakat yozuvchilarining atoqli vakillari hamraisligidagi “Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati” assambleyasining faoliyati ham, asosan, birdamlik, hamkorlik, hamjihatlikni maqsad qilib qo‘ygan edi. Ularning faoliyati uzoq davom etmadi. Ana shu qutlug‘ niyatlarni davom ettiruvchi va amalga oshiruvchi Assotsatsiyalarning yangi sharoitlardagi tashkillashishi va faoliyat yuritishi, fikrimcha, O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati ravnaqi uchun ham, umuman, jahon madaniyati ravnaqi uchun ham ijobiy hodisa bo‘la olar edi.

Chingiz Aytmatov va O‘zbekiston mavzusi ustida gap borar ekan, XX asrning bu ulug‘ adibi shaxsi va ijodiga O‘zbekiston davlat miqyosida e‘tibor va hurmat ko‘rsatib kelgani va kelayotganini ehtirot etish ortiqcha bo‘lmas deb o‘ylayman. Yozuvchi O‘zbekistonning “Do‘stlik” hamda “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari bilan mukofatlangani hamda unga mamlakatimizning umumxalq mehr-muhabbati bunga yorqin dalildir.

Chingiz Aytmatov ijodi haqida xalqaro miqyosda, shuningdek, bizda ham chuqur, atroflicha tadqiq ishlari olib

borilgan, asarlari o'girilgan. Lekin bu, biz Chingiz og'aning shaxsi, tabiatini, ijodini juda yaxshi bilamiz degan ma'noni anglatmaydi. Biz uni, ijodini ma'lum darajadagina bilamiz, xolos. Holbuki, uning inson sifatidagi fe'li-tabiatini, asarlarining yozilish sababi, tarixi va ahamiyatida bizga noma'lum xossalar oz emas, asarlarining hanuzgacha bizga ochilmagan qirralari ham bisyor. Shu vaqtgacha yetarlicha to'liq o'girilmagan yoki tarjima qilinmagan asari, qarashlari, fikrlari esa, biz uchun nihoyatda qimmatlidir. Uning avvalgi asarlari, qarashlarining davomi, uzviy qismlari sifatida bizning takomilimizda, shubhasiz, muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Qo'lingizdagi kitob adibning ana shunday, asosan shu vaqtgacha to'kis o'girilmagan, shuningdek, ilk bor o'girilayotgan, asaridan tashkil topgani uchun ham kitobxonlarimiz uchun qimmatli nashr sifatida qabul qilinadi, deb ishonamiz.

Baxtiyor NAZAROV,
O'zbekiston fanlar
akademiyasining akademigi

KATTA ENAM

Bolaligimning ilk esdaliklarini katta enam Oyimxonning yorqin xotirasini yodga olish bilan boshlamoq vafo burchimdir. Rahmatli enam o'zgacha bir insoniy sifatlar sohibi bo'lib, ovulda obro'-e'tibori, teran aqli zakovati bilan ajralib turar, xudo u kishini tabiatan dono qilib yaratgan edi. Katta enamdan juda ko'p narsani o'rgangan otam onasi bilan faxrlanib yurardi. U kishining boshlaridan hech qachon oppoq dastorlari tushganini ko'rmaganman. Xalqimizning udumiga ko'ra bunday mahobatli dastorda bir uyning haqiqiy boyvuchcha xonimi yurar edi. Bu qadrdon, ko'zga va ko'ngilga yaqin bosh kiyimi katta enamni yanada chiroyli, suyumli va salobatli ko'rsatardi.

Katta enam besh nafar farzand ko'rgan bo'lib, buning uchi qiz, ikkisi o'g'il edi. Shu qizlarning biri — Qoraqiz ammamning menga juda ko'p xizmatlari singgan.

Eng katta ammamning ismi Oyimgul bo'lgan. U kishini yaxshi eslayman. Turmushning azob-uqubatlarini shu ammamchalik ko'p tortgan inson zoti bo'lmasa kerak. Oila-dagi uchinchi farzand mening atam¹ — To'raqul, keyin Guloyim ammam, eng kenjasi esa Risqulbek amakim. Risqulbek akam o'tkir zehqli, bilimli kishi bo'lgan. Aytib berishlaricha, menga «Chingiz» degan ism qo'yishni ham u kishi taklif etgan ekan. Kechmish tarixni yaxshi bilganini shundan ham bilsa bo'ladi — bundaylar bolalariga tarixdagi ulug' shaxslar ismini qo'yishni ma'qul ko'radilar.

Risqulbek akamning taqdiri ham atam To'raqulning qismatiga o'xshash bo'ldi. Atam o'ldirilgandan keyin Shakarga qaytib kelganimizda bizga shu — Risqulbek akam qaradi. O'shanda u kishi yigirma besh yoshda edi. Bizning yeyish-ichishimizga qarab, qo'lidan kelgan yaxshilikni darig' tutmasdi. Biroq negadir uni o'sha aymoqning boshliqlari

¹Asarda "ota" so'zi "ata" shaklida berilgan.

qayta-qayta chaqirishib, so'roq qila boshladilar. Ishga o'r'nasha olmay, oxir-oqibat ko'chada qolishiga ham o'shalar sababchi bo'ldilar. 1937-yil kuz oylarining so'ngida uch militsiya xodimi yarim tunda kelib, uni olib ketishdi. O'sha kechasi Risqulbek akam ikkimiz yotgan edik. Negadir shu kecha men uyqudan tez-tez cho'chib, bosinqirab uyg'onganman. Esimda bor, har cho'chib uyg'onganimda akam bosh tarafimda xayoli qochganча mijja qoqmay o'tirar, meni ovutmoqchi bo'lardi.

– Qo'rqma, uxlagin! – deya yelkamga urib, tinchlantirishga urinardi.

O'shanda men akamning ne qadar meni ovutib, uxlatishga harakat qilganiga qaramay, kerosin chiroqning nim yorug'ida militsionerlarning qor qo'ngan ust-boshlarini qaltirab-titraganча kuzatib qolganim hamon-hamon yodimda. Shu-shu Risqulbek akamni qaytib ko'ra olmadik. Anchadan keyin Buryatistondagi bir lagerda qazo qilgani xabari keldi.

Katta enamning besh bolasi bo'lgan demabmidim. Qahraton kunlarning birida u kishi ham narigi dunyoga safar qildilar.

Xat savodi bo'lmasa-da, xudo bergan aql-zako sohibi, bo'lgan katta enam xalq qo'shiqlari, termalar, o'lanlar, rivoyatu ertaklarni ko'p bilar edilar. Bolaligimning totli kunlari o'sha cho'ng enamning mehri-muhabbatiga yo'g'rib o'tdi.

Bir voqea hamon xotiramda. Men unda besh-olti yoshlarda edim. Katta enam meni o'zi bilan birga yaylovga olib ketdi. Biz yaylovdagi qo'shga yetmoq uchun kun bo'yi yurdik. Bu Shakardagi eng uzun kunlardan biri edi nazarimda. Bu paytda barcha hududlardagi kabi kelgan joyimizda ham kollektivlashtirish siyosati amalga oshirilib, kolxozlar tashkil etilayotgan, yaylovma-yaylov ko'chib yuradigan qavmlar o'troqlasha boshlagan edi. Hayoti chorvachilikdan iborat odamlar bola-chaqasini ergashtirganча ko'ch-ko'ronini ko'tarib, suruvlari uchun qo'nalg'a, yaylov tanlashar, barcha birdek yozni qay manzilda ko'ngildagidek o'tkazish tashvishiga

Chingiz AYTMATOV

tushgan kunlar edi. Bunday daqiqalar mening bolalik hayotimda unutilmas onlar, sog'inchli xotiralar qoldirdi. Yaylovning so'z ila ifodalab bo'lmaz sehri, biz — murg'ak bolalar qalbida yangi bir dunyoni yaratar, uning siru sinoati har birimizning o'yu xayollarimizni to'zg'itib yuborardi.

Bo'z uylarni tuyalarga, ot va ho'kizlarga ortgan, quturgan yilqi uyurlari va qo'ra-qo'ra suruvlarni haydagan odamlar dashtu dalalarni bosib, qoyalaridan qor arimaydigan, samoga tiralib turgan oppoq tog'lar tomon ketib borar edilar. Ular yura-yura buyuk oshuvlardan oshib, nihoyat soya-salqin joylarga yetib, qo'sh tashlashar va shu tevarak-atrofdan suruvlari uchun qulay, sero't joy tanlashardi.

Ko'chdagi odamlar qayerga borib, qanday joy tanlashni yaxshi bilgan tajribali keksalar so'zlariga amal qilar edilar. Har bir odamga safardan oldin tegishli vazifalar yuklanar, oshuvlardan oson va talofatsiz o'tmoqlikning chora-tadbirlari ko'rilar edi. Yo'lchilardan kamchiligi bo'lgan kishilarga hashar uyushtirib yordam berishar, yaylovchilar zo'r ishtiyiq bilan safarga hozirlik ko'rardilar.

Ko'ch kelib qo'ngan manzil toza, bundan oldin hech bir qo'sh va suruv oyoq osti qilmagan joy bo'lishi kerak edi. Kunlar iliy boshlagan may oyining oxirlaridagina katta dovonlardan o'tib bo'lardi. Shundan so'nggina yaylovga yo'l ochilardi. Bir metrdan oshgan qor va muzliklar sakkiz oy mobaynida tog'ni qoplab yotar va shu muddat davomida qish qolipini buzmas edi.

Sentabrning oxiri — oktabrning boshlarida yana sovuq tushar, bola-baqra, qo'y-qo'ziyu, ot-ulov oyoq qo'lini yozib, huzur qilib yurgan bu yaylovlarni tark etishga majbur bo'lar edi. Agar suruv qishlamoq uchun shu olis daralarda qolsa, etakdagi yirtqichlar ham hatto bu taraflarga kelolmas edi. Dengiz sathidan uch-to'rt ming metr balandlikda bo'lgan bu yerlarning iqlim sharoiti g'oyat og'ir. Yashash manzillaridan

BOLALIGIM

uzoq bo'lgan bunday qo'ralarda qishlagan cho'pon-cho'liqlarga qahraton qishning qirovli kunlarida yordam bermoq ham mushkul edi. Biroq yozning iliq issiq kunlarida bir oz bo'lsa-da suruvning oyog'ini yozib, yayratmoq uchun bu sokin go'shalar odamlarni doimo o'ziga tortar edi. Shu bois ham odamlar qush uyqusi kabi umrlaridagi shonu shuhrat, to'yu tomosha kabi mayda turmush tirikchiliklaridan iborat hayotlarini mana shu bir necha oylik baxtga almashib yashar edilar. Yaylov bu — jannatning to'riday ajoyib bir xilqat edi.

Yuksak tog'lar bag'ridagi beg'ubor va betakror yashillik, ko'zni qamashtiruvchi turli-tuman anvoyi chechaklar. Asriy muzliklar qa'ridan oqib keladigan salqin va toza havo. Toshdan toshga urilib oqayotgan sharqiroq tog' soy. Turli xil hayvon va qushlarning sehrli saslari. Bular o'choqqa yoqadigan o'tindan ham ko'p... Qaysi birini ayta olasan? Qisqasi, yaylov necha yoshga kirmagin, hech qachon xotirangdan ko'tarilmaydigan, aytasang ado bo'lmaydigan bir armondir.

Xullas, qirg'izlar yoqimli charchoq va horg'inlik-la mo'ljalidagi joyni topishgach, qator qilib bo'z uylarini tikadilar. Yaylovdagi kunlar oxirlar ekan, cho'pon-cho'liq dovon bekilib qolmasdan burun undan o'tib olish tashvishiga tushadilar. Qish erta tushib, qor yog'ib qolsa ko'chki ko'chib qor ostida qolib ketish xavfi tug'ilar edi. Bunday qor ko'chkilari faqat odamlarni emas, uyur-uyur yilqilarni ham tappa bosib qolar, barchaning hayoti birdek shu yerda tugardi. Shu bois ham daradagi soy suvining cheti qaymoqlanganda ko'ch-ko'ronni yig'ishtirishga to'g'ri kelardi.

Bir marotaba men ham katta enam bilan birga ko'chga qo'shildim. Enam meni toyga mingazib qo'ydi. Men hech qachon o'sha toyni esimdan chiqara olmayman. Besh-olti yashar bolaning bir o'zi otga minib yurishi juda qiziq-da!.. Yiqilmaslik uchun egarning ikki tomoniga yog'ochdan uzangi qilingan edi. Katta kishilar o'tirgan egarlarga solishtirib qaraganda, bolalar uchun ataylab yasalgan bunday egarlar

Chingiz AYTMATOV

ayirmach deb atalib, shaharlik bolalarning o'tirg'ichlariga o'xshab ketadi. Mening o'z otim, o'z egarim borligi uchun g'ururlanib, terimga sig'may, to'lib-toshib borar edim. Men toychog'imni silab-siywab safarga hozirlanar, katta enam bilan qo'sh yuklarini tashib, u yoqdan bu yoqqa ot choptirib yurar edim. Uyur-uyur yilqilar va qo'ra-qo'ra qo'ylarni haydab yaylov yo'liga solar edik. Tuyalar ham lo'killagancha ustlaridagi yukni chayqaltirib biz oshiqayotgan sehrli yaylov sari ketib borar edi.

Biroq ikki oychalik maroqli yaylov hayotidan so'ng, yana o'shanday, it azobida ovulga qaytishga to'g'ri kelar edi. Borishda-da, qaytishda-da ming bir qiyinchiliklar kutib turardi. Bu mashaqqatlar yetmaganidek qor yog'ib, bo'ron turar, ko'chki ko'chib, mol-holimiz qor ostida qolib ketardi. Bola-chaqasi, xotin-xalaji, mol-mulki bilan butun boshli oilalarni ko'chki bosib qolgan kunlarni ko'rdik. Yaylovga ko'chuv oldidan qandaydir ruhiy tayyorgarlik ko'rilar, irim-sirimlar qilinardi.

Dovonga bir kunlik yo'l qolganida ko'ch bir yerga to'planib, tin oladi. Bu tun «shiqama tuni», ya'ni «chiqadigan, oshib o'tadigan» tun deb ataladi. Bizning karvon ham nihoyat «shiqama»ga yig'ildi. Kichik-kichik bo'z uylar tikilib, odamlar uning atrofida isinish uchun o't yoqdilar. Qarshimizda mangu muzliklardan iborat viqorli, uchi-quyrug'i yo'q tog' yastanib yotardi. Bunday damda kishi xayoliga ertaga qanday qilib qarshidagi dovondan eson-omon o'tib olsak ekan, degan o'ydan boshqa narsa kelmaydi. Uyur-uyur yilqilar suruv-suruv qo'ylar esa odatdagiday tunda qo'sh tortib, tinchgina kavsh qaytarib yotishardi. Odatda bunday kunlarda podaga biror kishi ko'z solib turmasa, og'zi ko'kka tekkan jonivorlar peshinga qolmay yoyilib ketadi. Faqat tevarak-atrofi tog' bilan o'ralgan joylardagina suruvlar olislab o'tlab ketmas, bir-biriga xomush suykanishganicha turib qolishar edi. Katta-kichik, keksayu yosh esa gulxanni gir aylanib o'tirib olganicha qo'shiq aytishar, duolar o'qishib, suhbatlashardilar.

— Mana dovonga ham yetib oldik. Xudoga shukr, bola-chaqamiz, mol-holimiz bilan to‘rt ko‘z tugal shu yerga yetib keldik. Yelkamizga oftob tegishi uchun yaylovga chiqamiz. Oshuvdan so‘ng bizni yam-yashil o‘tloq, tiniq buloqlar kutib turibdi. Bizni sero‘t va sersuv yaylovimiz kutmoqda! — degan orzu tilaklarni qiladilar.

— Bizni to‘sguvchi balo ko‘rmaylik! Qoru yomg‘iringdan o‘zing asra! Tuman va bulutlaring ko‘zimizni to‘smasin! Biz bu tog‘larni va yaylovlarni jonimizdan ortiq ko‘ramiz! Bolalarimizga baxt bergin! Molu jonimiz yaylovga sog‘-salomat, to‘kis-tugal yetsin! Qaytganimizda ham bizni shu balolardan qo‘rigin! Bor qiyinchiliklar shu yerda qolib ketsin! Mollarimizga ko‘k shaberdan o‘z nasibasini bergin! Qushlarning unini tinglab, o‘tovning tuynugidan quyosh nuriga boqqimiz keladi! Tangrim, senga shukur qilamiz! Qarshimizdagi oshuvdan bizning eson-omon, to‘rt ko‘z tugal, bag‘ri butun o‘tkaz! — deya yaratganga yalinib yolvoradilar.

Ne qadar hikmatli so‘zlar. Keyin ham bir necha bor tog‘ yayloviga bordim. Biroq shunday hikmatli tilaklarni qanchalik kutsam-da, eshitmadim.

Ne-ne zamonlar kechmasin bu qadrdon yaylovlar o‘sha beg‘ybop nafasini yo‘qotmagan. Bu sehrlı o‘tloqlar bolaligim kamol topgan hikoyalarga boy edi.

Bir kuni jag‘ tishim og‘rib qoldi. Biz yaylovda edik. Karvon manziliga yetib kelgan, barcha birdek chodir va bo‘z uylarini tikkan, har yurtda yigirma-o‘ttiztadan bo‘z uy turardi. Odatda ko‘chdagilar bo‘z uylarini urug‘-urug‘, qavm-qavm bo‘lib, yonma-yon tikishar, shu tariqa ahil bir ulus bo‘lib yashar edilar.

Shunday qilib, tish og‘rig‘iga chidab bo‘lmas edi. Duch kelgan bo‘z uyga bosh suqib, jon azobida chirqiragancha najot izlar edim. Na bir qarindoshim va yo bir qo‘shnimiz yordam bera oldi. Yaylovda esa tish duxturi qayda?

Tishim kunu tun og‘rib, azob berardi. Shunda ham tong-

Chingiz AYTMATOV

sahardan bolalar bilan o'ynab ketib, kechgacha tish og'rig'idan qiynalib bo'zalamda ag'anab yotardim. Bolalar tinim bilmay yalang oyoq chopib o'ynashar, kattalar ham bu o'yinqaroqlikka ko'nikib qolgan edilar. Ular ham bolalarining toza havodan nafas olib, miriqib o'ynashlarini istar edilar. Hech bir kishi bizni tek tur demasdi. Ko'm-ko'k osmon bizda chinni kosani to'nkarib qo'ygandek taassurot qoldirgan edi. Atrofimizda oqayotgan musaffo irmoqlar, bo'zalam o'tloq charchoqni yozar, qani endi shunday paytda tishim og'rimasa edi deya o'ylayman...

Tish og'rig'idan holim qolmadi. Nihoyat, boshi qotgan katta enam har xil ko'katlardan dori tayyorladi. Bo'lmadi. Tishimning og'rigan joyiga isitilgan tosh bosdi. Shifo topmadi. Enam qo'lidan ne kelsa qildi. Hech iloji bo'lmadi. Tishim zirqiragandan zirqirardi. Oxiri, toqati toq bo'lgan enam bir yilqichi qarindoshimizni tabibni olib kelmoq uchun jo'natdi. Tabibning qayerda yashashini bilmayman. Harholda bizga qo'shni yaylovdan bo'lsa kerak. Yilqichi yana bir otni egarlab, darrov yo'lga tushdi. Endilikda bunday ish uchun mashina yuborishadi. Biroq bizning yaylovlarda hartugul hozirga qadar mashina yo'li yo'q.

Tishim esa og'rigandan og'rirdi. Yig'lab, yer tepgancha o'zimni chalg'itmoqqa urinishlarim ham behuda ketardi. Oxiri, biz sabrsizlik bilan kutgan tabib yetib keldi. Kexsa bo'lsa-da, u sergak va harakatchan odam ko'rinardi. Katta enam uning qorasini uzoqdan ko'rib:

— Ana, kelyapti! — dedi suyunib menga qarar ekan: — Xudo qo'llaydi seni!

Men ag'anab yotgan yerimdan irg'ib turgancha o'tovdan otilib chiqdim. Yilqichi tuqqanimiz egarlab ketgan otga tabibni mindirgancha bizning o'tovni ko'zlab kelar edi. Tabib mingan otning jilovini uning qo'lidan olib, munosib qarshilagach, u shu zahotiyoq menga qaradi.

— Qayering og'riyapti?

Men ko'karib yig'lagancha tishimni ko'rsatdim.

– Yig'lama, hozir og'rimay qoladi, – dedi tabib meni yupatib:

U meni ko'zdan kechira turib, enamga shunday dedi:

– Bo'z uyda boladan boshqa hech kim qolmasin. Uni boshdan oyoq kigizga o'rab o'tirg'izaman!

So'ngra u aytganini qila boshladi. Men yerga chordana qurib o'tirgancha boshimni quyi egdim. Tabib sham yonib turgan idishni oldimga olib keldi. Sham miltirab yonib turardi.

– Og'zingni ochib shamga taqa, – dedi. Men aytganini qildim. U esa ustimga kigizni yopdi. Qorong'ida qoldim. Sham lipillab yonib turardi. Yuzi salqi tabibning uloq-quroq kiyim-kechaklari har xil hayvonlarning terilaridan tikilgan edi. Bu qandaydir biz bilmagan hayvonlarning terilari edi. Uning boshdagi bo'rki ham g'alati edi. Kigiz ostida, sham yorug'ida og'zimni katta ochgancha uzoq o'tirdim. Tabib bo'lsa men tushunmagan qandaydir tilda allanimalarni so'ylab, g'ayritabiiy ovoz chiqarardi. Tabibning shaman ekanligini bu paytda men bilmasdim. Islomni qabul qilganimizga ko'p yillar bo'lgan bo'lsa-da, hamon shamanizm el orasida yashab kelardi. U baland ovozda duolar o'qib, qushnoqlar kabi hayqirardi.

Balkim menga hech kim ishonmas. Biroq tish og'rig'im taqqa to'xtadi. Necha kundan beri tuz va har xil dorilardan tortib, hatto issiq toshdan ham bosilmagan og'riq sen ko'r, men ko'r yo'q bo'ldi-qo'ydi.

– Og'riyaptimi? – deya so'radi mendan tabib. Men boshimni irg'ab «yo'q» ishorasini qildim. U menga yana bir oz chidab turishni tayinladi. Men indamadim. Nihoyat, u boshimdagi yoping'ichni ochganda yerda mayda-mayda oq toshga o'xshagan narsalar sochilib yotar edi.

– Ko'rdingmi mana bu kichkintoy qurtlarni? – dedi u suyunib. Diqqat bilan tikilib, soch kabi ingichka qurtlarning

Chingiz AYTMATOV

qimirlayotganini ko'rdim. Tabib shu taxlit tishimni davoladi. Men bu voqeani hech-hech unuta olmayman...

Ancha yillardan so'ng tish tabiblaridan haqiqatan ham odamning tishida qurt bo'ladimi deya so'raganim, esimda. Ular bot-bot bunday bo'lishi mumkin emasligini ta'kidladilar. Bu voqeani hozirgacha tushunib yetolmayman. O'shanda shaman menga:

— Mana, yaxshi bo'lib ketding! Endi hecham tishing og'rimaydi, — degan edi.

U meni sehrladimi yoki men haqiqatan ham qurtlarni ko'rdimmi, tushuna olmadim.

Albatta, tish og'rig'ini unutib o'rtoqlarim bilan shataloq otganча o'ynab ketdim. Tabibga enam katta sovg'a-salom berib, kelgan otida kuzatib qo'ydi.

Bu topishmoqli hikoyani boshdan kechirib, nima demoqchiman? Eng muhimi, endi tishim og'rimaydi-da, to'g'rimi?

BIRINCHI MEHNAT HAQIM

Shunday qilib, yaylovda hayotimdagi eng birinchi mehnat haqimni olgan joyim bor.

Bu paytda el jamoatlashib, kolxozlarga birlashishar va bu jarayon tugab qolgan edi. O'sha paytda biznikilar uyur-uyur yilqilarni haydab yaylovga chiqishayotgandi. Nazarimda o'shanda bu yilqilar tog' yaylovlarida o'z umrlarini jannatda o'tkazayotganday tuyulardi. O'shanda o'ylar edim: agar Yaratgan jonivoriga es-hush bergan bo'lsa, albatta, ular qirchillagan qish kunlaridagi og'ir hayotlarini eslashlari kerak... Bunday qarasang esa ot jonivorga baribir... Shimol izg'irininining qaqshatqich bo'roniga parvo qilmay, tanasini teshgudek bo'lib savalayotgan dovulga sag'risini tutib yashaydi. Kechalari esa sonsiz yulduzlar to'la osmon ostida yotadi.

Kunlardan bir kun o'tloqdagi el kutilmaganda bezovta bo'lib qoldi. Ko'p o'tmay ular yig'ilishib, maslahatlashmoq uchun

katta enamning o'tovi qarshisida to'plandilar. Yig'ilganlarning bari yilqichilar edi. Ular qarasalarki, uyurni boshlab yurgan, yetakchi ayg'ir bo'ladigan ot o'lgan... Odatda keksalar har bir qo'nalg'ada bu yerning iqlimiga ko'ra suruvni qanday boqish va asrash kerakligi haqida yoshlarga yo'l-yo'riqlar berib turishar edi. Bu paytda kolxozlashtirish o'lkaning barcha burchaklarida bilan amalga oshirilardi. Go'yoki yilqilar ham bu iqtisodiy o'zgarishlarga aralastirilgandek edi. Men buni keyinroq, er yetganimda (voyaga) – Chorvachilik texnikumining veterinariya va zootexnika fakultetida o'qiy boshlaganimda tushunib, o'shandagina anglay oldim.

Odatda, yilqichilikda yangi zotlar yaratmoq, asl ayg'ir nasllarini asrab qolmoq borasida uzoq va mashaqqatli tajriba va sinovlar o'tkaziladi, natijalarni sabrsizlik bilan kutishga to'g'ri keladi. Kolxozlashtirish davrida ham asl zotli ot, buqa va qo'chqorlarni naslchilikni yaxshilash uchun olis o'lkalardan katta xarajatlar evaziga olib kelishgan. Masalan, Avstraliyadan keltirilgan qo'chqorlar va o'zimizning jaydari qo'ylardan tug'ilgan zot birdan boshqacha bo'lib qolar edi. Bunday tajribalar yilqichilikda ham qo'llanilardi.

Yaylovda o'lib qolgan o'sha ot «Don ayg'iri» deb atalgan bo'lib, kolxoz uyuridagi bahosiz bir mol ekan. Biz uning yuksak tog'lar etagida ne vaqtdan beri ayqirib, chopib yurganini qaydan bilaylik?..

Xullas, Don ayg'iri tuyqusdan o'lib qoldi. Biz o'sha paytda odamlar “ulug' shiber” deb ataydigan, Ulu-Saz degan yaylovda edik. Bu yerlarda uzun-uzun, beso'naqay zaharli o't-o'lanlar ko'p o'sardi. Bizning yilqilar bunday o'tlarni yaxshi bilishar va ularga yaqinlashmay, aylanib o'tib ketishardi. O'sha bechora “mehmon” Don ayg'iri bu zaharli o'tlarni qaydan bilsin? U shu o'tlardan yeb qo'yib, zaharlanib o'lgan ekan.

Biz – barcha bolalar to'planishib, Don ayg'iri o'lgan joyga jo'nadik. Voqeani o'z ko'zimiz bilan ko'rgimiz kelardi. Keldig-u, serrayishib turib qoldik. Don ayg'iri uzun oyoqlarini

Chingiz AYTMATOV

cho'zganча tarashadek qotib yotar, qorni yorilgudek shishib ketgandi. Uning og'zi karrakdek ochilib, tishlari oqarib ko'rinib turar, ko'zi oyna kabi yaltirar, boshi bukilib qolgan edi.

Yilqichilar esa ayg'irning u yoq-bu yog'idan o'tib qarashar, boshlarini chayqaganча qayta-qayta afsuslanishar, qovoqlarini solganча, shunday azamat otning qanday o'lib qolganligini tushunmay hayron edilar. Uyurni doimo boshlab yurgan, qulondan ham sog'lom, shunday yilqi kutilmaganda qanday qilib o'lib qolganini barcha birdek aqliga sig'dira olmasdi. Aslida gap boshqa yoqda edi. Ular yilqining o'lganiga emas, erta kunda yuqoriga qanday qilib buning javobini berish haqida bosh qotirardilar. Naslli bir ayg'irning o'limi kolxoz yetakchilari uchun ham taqdirларini hal etadigan bir voqea edi aslida.

Bo'lar ish bo'lgan, bo'yog'i singan edi. Endi birgina amal qolgan, bu ham bo'lsa naslli otning qanday qilib halok bo'lgani batafsil yozilgan bir tilxat — akt zarur edi.

Ovulga chopar yuborishdi. Ertasi kuni u bilan birga yaylovga sariq sochli o'ris bir kishi — mol duxturi yetib keldi. Yilqichilar bo'lsa, ayg'irning o'limi sababini anglata olmay ovora edilar. Rus kishi esa o'ziga qarab jovdirashib turgan yilqichilarning og'ziga qaraganча hech yerida jarohati bo'lmasa-da, sulayib o'lib yotgan otni gir aylanib nima deyishini bilmay, hangu mang edi. Otning og'zini ochib ko'rib, hech bir yerida jarohat izini ko'rmay, ne bo'lganini tushuna olmay battar boshi qotgan edi molduxturning. Yilqichilar esa ruschani bilmaganliklari uchun ne voqea sodir bo'lganini so'ylay olmasdilar. O'ris esa qirg'izча bilmas, u paytda ikki tilni bilganlar juda kam uchrardi.

Shu mahalda otboqarlardan biri Oyimxon boyvuchchaning nabirasi o'risча bilishini eslab qoladi-da, katta enam huzuriga yuguradi. Chopar enamdan ayg'irning qanday qilib o'lganligini o'ris duxturna o'rischalab tushuntirib berishimni

iltimos qiladi. Men odatdagiday o'rtoqlarim bilan o'ynab yurardim. Katta enam mening qo'limdan tutib:

– Yur, ulug'larga tilmoch bo'lasan! – deb yetaklab jo'nadi. Men esa o'yindan qizg'anib taysallab, ko'nmayman. Katta enam qistaydi:

– Qo'ysang-chi, xudo urgan! Sen o'rischani bilasan-ku. Tilmochlik qilmasang, barcha qarindoshlar seni yomon ko'rib qoladi. Faqat seni emas, ata-enangni ham yomon ko'rib qolishadi. Bas qil endi! – deya tergab ovuldoshlar to'planib turgan yerga yetaklab bordi. Odamlar esa o'lgan ayg'irni gir aylanib turishar edi. O'ris kishi ular o'rtasida turardi.

U kishi menga qarab o'rischaladi:

– Ey, bola! Salomatmisan? – dedi.

To'planganlar serrayishgancha, sas-sadosiz menga tikilib turishardi. Men hamon o'zimga kelmay tortinib turar edim. U salomini yana qaytaladi.

– Zdravstvuyte! – dedim men ham unga.

– Sen menga yordamga kelganga o'xshaysan? Ko'p aqli bola ko'rinasan? Qaragin, bu azamat otning o'lib yotganini. Buning qanday qilib o'lganini menga tushuntirib ber-chi! – dedi rus kishi erkalagan ovozda.

Olomon ichidan bir oqsoqolrog'i menga yaqin kelib, sochimni silagancha ayg'irning qanday o'lganini tushuntirdi. U menga shunday dedi:

– O'g'lim, sen bu o'risga bizning tog'da uzun bo'yli, zaharli o't o'sishini, ayg'ir shuni yeb qo'yib, zaharlanib o'lganligini ayt. Bizning yilqilar esa bu o'tlarni yaxshi bilib, yemaydilar. Ayg'irning bu yaylovga birinchi bor kelishi. U bu o'tning farqiga bormay yeb qo'ygan. Shunday deb tushuntirgin.

Men hamon tortinib turar edim.

– Bo'l endi, ayt! – deyishardi odamlar meni turtib, qistashib.

Hayron bo'lib turgan rus kishi chidamay mendan so'radi:

Chingiz AYTMATOV

– Nima bo‘pti, nima deyishdi? – dedi jig‘ibiyron bo‘lib.

– Amaki, ayg‘ir zaharli o‘t yeb qo‘yibdi, – dedim men arang tilim kalimaga kelib.

– Nima? Qanday zaharli o‘t ekan? – dedi o‘ris diqqat bilan.

– Bizning tog‘larda baland bo‘yli zaharli o‘tlar ko‘p o‘sadi. Yerlik yilqilar ularni yaxshi bilib, yaqin yo‘lamaydilar. Bu ot esa bilmay o‘sha o‘tni yeb qo‘yibdi, – dedim men ta‘kidlab.

Yilqichi qariya yana menga o‘girildi:

– Qarasin, zaharli o‘t egani uchun ichi ko‘p ketgan. Qorni shishib ketgani ham shundan.

Men rus kishiga bu gaplarni ham bir boshdan tarjima qilib berdim.

Rus kishi menga:

– Azamat! Hammasini tushundim. Endi aktini ham yoza olaman, – deya bir qog‘ozga allanimalarni yoza boshladi.

Yilqiboqarlar birin-ketin qog‘ozga imzo chekdilar. Rusni bo‘lsa, enamning o‘toviga mehmondorchilikka olib jo‘nashdi. Darrov qo‘zi so‘yilib, qo‘noq siylov udumi boshlandi.

Men esa odatdagidek bo‘z uyimiz atrofida bolalar bilan o‘ynab yurar edim. Bir mahal ichkariga chaqirib qolishdi. Katta enam to‘rda savlat to‘kib, faxrlangancha menga qarab o‘tirardi. Mezbonlardan biri menga yog‘li ilik uzatdi:

– Sen juda pishiq bola ekansan. Shu yerdaliging asqotdi, bo‘lmasa, o‘risga gapimizni tushuntira olmay ovora bo‘lardik. Mana, ol, senga ustuxon! – dedi. Men suyunib ilikni oldim.

O‘shandan beri ikki madaniyatga xizmat qilib kelaman. Bu voqea mening bu boradagi ilk tajribam edi. Bolalik dunyomni larzaga keltirib, hayotimda o‘chmas iz qoldirgan ushbu voqea shu kundan boshlab, taqdirimning ajralmas bir bo‘lagiga aylandi. Qismat menga ikki tilni bilmoqni nasib etgan ekan. Biri ona tilim, ikkinchisi o‘n sakkizinchi asrdan beri, ikki yuz yilga yaqin vaqt biz bilan yonma-yon yashagan, taqdiru

toleyimizga yozilgan rus tili. Rus tili bizning, Turkistonning tarixiy, madaniy rivojiga ulkan ulush qo'shdi. Rus tilini bilmoq hayotimizdagi muhim bir omil bo'lib qoldi.

Men buni siz shohidi bo'lganingiz kabi o'z boshimdan o'tkazgan joyim bor.

ATAMDAN QOLGAN XOTIRALAR

Atam ko'z oldimda shu taxlit gavdalanadi: qop-qora quyuc sochi, o'sha ko'mirday qora sochning bir tarafidagi tikkaygan bo'lagi, ishga kiyadigan harbiycha ko'ylagi, qo'nji uzun bulg'ari etigi...

Atam ko'pincha qo'sh ot qo'shilgan arava bilan yurar edi. Aravada ikki kishilik o'tirg'ich bo'lib, usti teri bilan sirib qoplangan edi. Atam doimo aravaning orqasida o'tirar, oldinda esa aravakash.

Atamni eslashim bilan Farg'ona tarafdagi loysuvoq uylar ko'z oldimga keladi. Paxsa yoki guvala devorlar bilan qurshalgan ayvonsiz, usti va yonlari tep-tekis yer tomlari bo'lguvchi edi.

Farg'onaning turmush tarzi bir boshqacha. El birlashib, ahil-inoq yashashadi. Qishloqlarda ayolmi, erkakmi ittifoq bo'lishib, oqsoqollari so'zini yerga tashlamaydilar. Ular yaxshi-yomon kunlarda ham doimo birga bo'ladilar. Bunday ahillik bugungi kunga qadar O'zbekistonda saqlanib keladi.

Ming to'qqiz yuz o'ttiz to'rtinchi yilning boshi. Mening olti yoshli bola kezim.

Atam To'raqul o'z yerining belgili insonlaridan biri bo'lgan. Xat-savodi erta chiqqan. Jambuldagi Avliyoata nomli rus maktabini bitirgan, o'ttizga yetar-yetmay, davlat xizmatida ishlagan odam edi.

To'rt tarafda kolxozlashtirish degan katta siyosatning dag'dag'asi. Butun xalq asriy hayot tarzi va dunyoqarashini o'zgartirib, yangi siyosatga o'zini urgan, hukumat to'p-to'p qilib o'qitib, odamlarning xat-savodini chiqarish chorasini

Chingiz AYTMATOV

ko'rar, o'zlaricha ozodlikka chiqqan odamlar boy va quloqlarni tag-tomiridan yo'q qilamiz degan g'oyalar bilan yashagan holda kelajakning umidli kunlarini kutardilar.

Aravon tumani Farg'ona vodiysining paxta ekiladigan yerlaridan iborat. Paxta qora ter bilan yo'g'rilgan, mehnat bilan oqaradigan bir o'simlikdir. Uni ekib, haydab, sug'orib va terib olmoq uzluksiz, ko'pchilikning birlashib ishlashini talab qiladi. Atam mana shu ishlarga bosh-qosh edi. U kunu tun tinim bilmay aravada yurar, charchadim-toliqidim demasdan dalama-dala kezardi. U har doim el orasida edi.

Bolaligim ocharchilikda o'tdi. Devona va tilamchilar hozir ham xuddi o'sha paytdagidek ko'z oldimda gavdalanadi. Ulardan biri — kichik bolakay biznikiga tinimsiz kelar edi. O'n-o'n bir yoshlarda bo'lsa kerak. Yegulik tilab, bir amallab kun kechirib yurar edi. Ochiq turgan darvozadan yoki derazadan boshini suqib ayanchli ohangda xayr-sadaqa so'rardi. Ruscha, qirg'izcha aralashtirib:

— Mamochka, mamochka! Kursak propal! Yo Mamochka!
— deguvchi edi.

Uning kishi dilini yumshatuvchi ovozidan rahmi kelgan apam bir burda non yoki yemakni o'rab, unga berib kelishni buyurardi. U aylanib-o'rgilib biznikiga kelaverardi. Bora-bora men u bilan do'stlashib ketdim va birga o'ynaydigan bo'ldik. Bir kuni atam buni payqab qoldi va uning kimligini so'radi. O'sha bolaga tanga berganimda u rosa suyungan edi.

Tilamchi bola har doim bir xurjunni ko'tarib yurar edi. Hali-hali ko'z o'ngimda. O'sha xurjuni tol-tol bo'lib so'kilib ketgandi. Uning xurjunida katta qalay konservaning bo'sh idishlari yurardi. Ikkimiz xas-xashak to'plab o't yoqardik, u o'sha konserva qutisida bulomiq pishirar edi.

Bir marta atam ikkimiz Andijonga bordik. Bu safar unutilmas bir voqea sifatida xotiramda muhrlanib qolgan. Andijon — Farg'ona vodiysining eng yirik shaharlaridan biri edi.

Yo'lchilik uzoq kechdi. Biz yo'l-yo'lakay to'xtab-to'xtab, dam olib borardik. Yo'l bo'yi odamlar atam bilan so'rashib-suhbatlashar, allanimalarni so'rashardi. Elning yashash sharoiti og'ir edi. Qanday so'rov-savollar berilmasin, atam ularga umidlantiruvchi javoblar qaytarar, o'z maslahatlarini berardi. Xalqning ko'pchiligi yangicha turmush tarziga tushuna olmay aro yo'lda qolgandi. Kolxozlashtirish shu muammoni yechishi kerak edi. Yolg'iz umid shu kollektivlashtirishdan bo'lsa-da, og'ir hayot elning belini bukib, ezib tashlagandi.

Ana shu tashvishlarning barchasi bir odamga — aqlli, har doim jonsarak, toliqmay ishlaydigan atamga qolganday edi.

Biroz fursat o'tgach, atamni Moskvaga yuborishdi. Buning sababini men bilmas edim. Men faqat bir narsani bilardim — biz Frunzega (hozirgi Bishkekka) qaytib kelganimiz bilan baribir atam deyarli uyga kelmas edi. Keyin bilsam, Moskvaga o'qishga ketibdi. Yuqori tashkilotlar davlat ishidagi taniqli qodirlarni o'sha davr siyosatini yanada pishiqroq egallashlari uchun Qizil professorlar institutiga o'qishga jo'natayotgan ekan. Ular orasida atam ham bor edi. Shu bahona biz bir yarim yil atamni ko'rmadik.

Biz bir atadan uch farzand edik. Men, opam va ukam.

Shunday qilib, oxiri apamiz bizni atamizga — Moskvaga olib boradigan kun yetib keldi. Bu kunlar mening esimda qadimgiday yaxshi saqlanib qolgan. Qarindosh urug'larimiz to'planishib bizni Frunzedan kuzatishdi. Poezd Jambilga kelib to'xtaganida, bekatda, Talasdan kelgan qarindoshlarimiz yig'ilishib, bizni uzatib qo'ymoq uchun to'planishib, kutib turishardi. Ular bizga yo'l uchun oziq-ovqat ham g'amlab kelishgandi.

Biz poezdda roppa-rosa besh kun yo'l yurdik. Yo'lovchilarning har biri o'z g'ami-tashvishi bilan band. Faqat bizdagina bir idish bo'lib, unga qaynoq suv olish imkoniga ega edik. Odamlarning barchasi qorinlarini to'yg'izish bilan o'zlarini ovora edilar. Bu olis yo'lchilik men uchun hayotimdagi eng

Chingiz AYTMATOV

romantik safar bo'lib qoldi. Axir, Moskvaga boryapmiz! Umrimde ilk marotaba Moskvaga – otajonimga boryapmiz! Apam o'sha yoqda yashab, o'sha yerda o'qishimizni aytib yurardi. Atam Moskvada oilasiz yurganini rahbarlarga bildirib, bola-chaqasini olib kelishga ruxsat olgan ekan.

O'sha safar-sayohatning esdan ketmas xotiralari Orol ko'li va uning sohillarida qolib ketdi. Bu ko'l u paytda uchiqo'yrug'i yo'q dalaning o'rtasida chayqalib yotgan ko'm-ko'k dengiz edi. Hayotimde ilk bor ko'rgan dengizim ham Orol edi. Uning zalvorli to'lqinlarining temiryo'l izlariga kelib urilishi hali-hanuz ko'z o'ngimda.

Poyezd bir necha marotaba to'xtadi va biz opam bilan tashqariga chiqib keldik. Opam Boyqush bizdan xavotir olib, izimizdan qolmasdi. Biz bo'lsa, ko'zga ilingan barcha narsalarni ko'rmoqqa intilar edik. Poyezdning oynasidan dengizni ko'rmoq biz uchun o'zgacha bir siru sinoat edi. Dengiz bilan poyezd oralig'ida odamlar naridan-beri chopib yurishar, bular baliq sotuvchi qozoq bolalar va qizlar edilar.

Meni chayqalib, to'lqinlanib yotgan dengizning cheksiz va ulug'vorligi hayratga solgandi.

Endilikda bu yerdan o'tganimda dengizning o'sha ulug'ligi, o'sha sehrini ko'rolmayman. Suvi ozayib, o'lib borayotgan o'ksik bir dengiz. Dunyo ahlining ayni zamondagi ekologik vazifasi – Orolni millionlar yil burun qanday turgan bo'lsa, o'sha ahvoliga olib kelmoqdir.

Orol ko'lidan so'ngra ulug' Volga daryosiga duch keldik. Uning yashil vodiylari, cheksiz yashil to'qaylari oralab Rossiya qo'yniga kirib borardik. Nihoyat, Moskvadagi Qozon temiryo'l bekatiga yetdik. To'da-to'da odam. Bundan keyingi voqealarni yaxshi eslay olmayman. Yashab turgan yerimizga qanday yetib kelganimizni ham eslolmayman. Biroq Vorovskiy ko'chasidan qanday qayrilganimizni yaxshi xotirlayman.

Moskvaning qadimiy va tarixiy Vorovskiy ko'chasi hozir ham bor. Bu ko'chada, keyinchalik menga qadrdon bo'lib

qolgan Yozuvchilar uyi joylashgan. Uning yonidagi beshinchi uyda biz yashaganmiz. Bolaligimda shu Yozuvchilar uyining bog'ida ko'p o'ynar edim. Uning qarshisida esa butun Rossiya xalqiga ma'lum Kinochilar markazi o'rin olgan.

Agar yanglishmasam, 1936-yili Maksim Gorkiy vafot etganida Yozuvchilar uyiga men ham borganman. Otamning yonida Gorkiyini so'nggi yo'lga uzatish marosimida qatnashganman. Endilikda bu ko'chadan ko'pdan ko'p elchiliklar, konsulliklar, banklar, Rossiya Oliy Sudining binosi joy olgan. Yozuvchilar Soyuzi qarshisidagi Aktyorlar uyi eski me'moriy shaklida saqlanib qolgan.

Moskvaga kelib, bu yerning har xil shart-sharoitiga ko'nikkan edik. Birinchi va ikkinchi sinfni Moskvada o'qidim. Qatnagan maktabimni negadir eslay olmayman. 1935-yilning mart yoki aprel oylarida bu azim shaharga keldik-da, 1937-yilning avgustigacha yashadik. Atam mening yaxshi o'qishim uchun astoydil kirishgan edi.

Besh kishidan iborat oilamiz bir xonalik uyda yashar, oshxonadan esa o'sha qavatdagi bir necha oila foydalanardi. Uy menga juda katta ko'rinar, biroq undagi odamlar tiqilishib yashashardi.

Moskvada biz mutlaqo yangicha — o'zgacha hayot tarzini qabul etgandik.

Bolalik dunyomning o'chmas xotirasidan biri — atam bilan Kinochilar uyida, o'sha zamonning mashhur filmi «Solovey Solovushka» filmini tomosha qilganimizdir. Bu filmda bir suluv qiz bilan yigit o'rtasidagi muhabbat hikoya qilinadi. Qiz va yigit bir boyning cho'risi bo'lishadi. Boy bo'y yetib turgan qizni yashirin, boshqaga sotadi. Uning suluvligi, go'zalligini aytmang. Kuylashi-chi? Shuning uchun ham film «Solovey Solovushka» deb atalsa kerak. Kinodagi qiz va yigitning fojiasi, qizning yig'lagani, xo'rlanganligi, boshqa birovga sotilishi bolalik dunyomga chuqur ta'sir etgan. U paytlarning

Chingiz AYTMATOV

filmlari spektakllarga o'xshab ketar edi. Haqiqiy kino asari yaratmoq katta san'atdir.

Filmdan qattiq ta'sirlangan joyim shu bo'ldiki, butun kinoteatrni boshimga ko'tarib ho'nragancha bo'zlab yig'lay boshladim. Atam menga qarab turib, toqati toq bo'ladi. Joyidan turib meni tashqariga olib chiqib ketay desa, o'ziningda filmni oxirigacha ko'rgisi kelardi. Chiqmayin desa, men bo'taday bo'zlayman! Shunda u menga:

– O'g'lim, bu yerda yig'lash uyat bo'ladi! Qo'y, yig'lama!
– dedi ovutib.

Xullas, ota-bola kinoni oxirigacha ko'rdik. Yig'idan ko'zlarim shishib, uyga qaytdik. Atam koyigan ohangda apamga:

– Bu bola nega buncha his-hayajonli? Film barchamizga birdek ta'sir qildi. Biroq hech birimiz bor ovozda bo'zlab yig'lamadik, – dedi mendan shikoyat qilgan bo'lib.

Atamning bu so'zlaridan bir oz xijolat cheksam-da, bari bir suyunganman.

1936-yilning yozi ham keldi. Moskvaliklar yoz oylarida dachalariga ketishadi. Bizning ham Parfionovka degan joyda dachamiz bo'lardi. Unga Leningrad temiryo'lidan borilardi.

Yoz oylarida poyezdlar serqatnov edi. Lokomotivlar shaharliklarni xutor va qishloqlarga, u yerdagilarni esa shaharga tashir, vagonlar doimo liq to'la bo'lardi. Biz o'shanda birovning dachasining yarmini ijaraga olganmiz. Bu paytda oilamiz olti kishiga yetgan, singlim Roza tug'ilib, unga endigina to'rt oy bo'lgan edi.

Hayotimiz ravon, turmushimiz osuda kechardi. Ovulning bolalari bilan gohida urushib-tortishib o'ynar, uzuk-kun daryodan chiqmasdik. Yangi sog'ilgan sut ichib, qo'ziqorin terardik. Biz bu yerda ruslarning qishloq hayotini boshdan kechirardik. Atam bilan apam qo'shnilarimiz bilan to'planishib

tanish-bilishlarning to'yu ma'rakalari yoki tug'ilgan kunlarini nishonlashga borishar edi. Biz bolalar bilan chillik otib o'ynar edik.

Kunlarning birida bizga qo'shni turgan ikki rus urishib qolishdi. Buning ustiga ota-bola. Ikkisi bir-birovini ayovsiz savab, tepkilashardi. Ularga qarab turib, qo'rquvdan dahshatga tushdim. Chinqirib yig'laganicha, uyimiz tomon yugurdim. Mening ko'kargan rangimni ko'rgan atam o'zini tuta olmay o'sha ikki rus tomon xezlandi. Chamasi, ular meni urdi deb o'ylagan bo'lsa kerak. Voqea tafsilotini anglagach, achchig'lanib uyga qaytib keldi.

Ko'rsatgich barmog'i bilan meni ko'rsatib apamga:

— Bu bolang odam bo'lmaydi! U ikkovi g'irt mast bo'lib yoqalashib yotsa, bu chinqirib yig'lab yuribdi. Shuyam gapmi?! Buning bu qadar ta'sirchan, hayronman! — deya bo'lgan voqeani apamga aytib berardi. Apam esa kuyib-pishib meni oqlashga urinardi. O'sha, kinodagi voqea qaytalangan edi. Ikki kishining mushtlashib bir-birini ayamadan tepkilagani yuragimni yaralab, his-tuyg'ularimni junbushga keltirgandi.

Parfionovkada bir oyga yaqin o'sha yerdagi maktabga ham qatnab yurdim. Temiryo'l bo'yidagi kechmish rus tarixiy uyini maktab qilib olishgan edi.

Ata-enam o'zlarini oddiy kishilar kabi tutganlari bilan olis bir o'lkadan poytaxt shahar Moskvaga, davlat markaziga kelib o'qib, yashayotganlari bilan faxrlanar edilar. Ular chanqoqlik bilan hayot tajribalarini orttirishar, imkon qadar ko'proq narsalarni o'rganib olmoq uchun harakat qilishardi. Darvoqe, bu qisqa fursatda ko'p narsalarni o'rganib ham olishdi.

Biroq... Biroq ularning Moskvadaga hayoti fojiaiy ravishda tugadi, tamom bo'ldi...

1937-yil kelgan, siyosiy ta'qib atamning ham yoqasidan tutib, o'z komiga tortayotgandek edi...

Avgust oyida dachadan shaharga qaytdik. Atam bir falokat yuz berishini oldindan sezgandek, bizni yurtimizga qaytarib

Chingiz AYTMATOV

yuborish taraddudiga tushib qoldi. Taqdirning bu dahshatli balosidan qutulib qolishga zarracha ham iloj yo'qligiga, bu yo'ldan chiqa olmasligiga ko'zi yetganday ana shu qismatdan olislatmoqni o'ylab, bizni Qirg'izistonga jo'natishni lozim ko'rdi. Bizning bu musofir yurtida kimsasiz qolib ketishimizni istamadi...

Biroq qayoqqa ham borar edik. Frunzega qaytib bo'lmas, bu yer ham notinch. Moskvadan bizni badarg'a etayotgan dahshat bu shaharda ham o'lim isini anqitib kezardi. Boshqa boradigan yerimiz yo'q, oilamiz esa olti jon edi. Shu og'ir taqdir toshining panasida biz uchun miltirab turgan bir umid o'ti — yolg'izgina Maymoq qolgan edi. Tekis dala ham shu yerda tugab, qirlar boshlanar, so'ngra tepaliklar, yuksak tog'lar o'lkasi Shakar... Shakar, Ko'ksoy va Archalining yo'llari shu Maymoqda qo'shilib, undan so'ng boshqa katta yo'llarga ulanadilar. Maymoqqa poyezd katta tonnel orqali o'tib kelardi.

Mashhur tonnel. Katta atam Aytmat, atam To'raqul ikkisi bu tonnelni barpo etishga ko'p kuch sarflashgan. Bu tonnelni qurishda atam jonini ayamay ishlagan. U qisqa umri davomida el uchun ancha-muncha ish qilishga ulgurgan, ko'pchilik manfaati uchun qo'lidan kelganini ayamagan. Endi esa ana shularning jazosini oldi. Olsa-da, hayotini baxshida etib, tovon to'ladi...

Biz nima uchun, nega va kimdan qochib, kimlarning oldiga ketayotganimizni u paytda unchalik anglab yetmagan ekanman. Biroq yuragim qandaydir xavf-xatarni tuydi. Buyumlarimizni yig'ishtirayotgan atam bilan apamning qayg'uli nigohlari, qo'rquv to'la ko'zlari qandaydir bir falokatning xabarini aytib turardi. Atam biz bilan keta olmas edi. Buni ishidan ruxsat bermaganida uqqan edim. Shunday ahvolu ruhiyatda atam bizni kuzatib, yo'lga solib qo'ymoq uchun cheksiz kuch-g'ayrat ko'rsatdi. Bizni o'z elimizga, ukasi Risqulbekka jo'natdi. Xudo yorlaqab agarda u tirik bo'lsa...

1937-yil avgustining oxirgi kunlarida buyumlarimizning ko'pini sotib, keraklarini yig'ib, apam, olti oylik singlim Rozani olib, to'rt tug'ishgan bir bo'lib, qaytmoq uchun yo'lga chiqdik. Atam bizni Qozon vokzalidan kuzatdi. Poyezd yura boshlaganida ham odatda eshiklari ochiq bo'ladi. Vagonlardan bittasi qo'shimcha bo'lib, ehtiyot shart uchun bo'sh ekan. Kupelardagi karavotlar ikki qavatli edi. Atam bizni shunday kupelardan biriga joyladi. Xayrlashdi. Apamning o'shandagi ko'zyoshi, atamning g'amgin chimirilib turgan qiyofasi xuddi kechagiday ko'z oldimda turibdi...

O'shanda vagonda odam ko'p edi. Bir-birlarini turtkilashib, yo'lovchilar o'z joylarini qidirishar edi.

Mening atam bo'lsa, jila boshlagan poyezd bilan birga avval yurib, so'ngra chopib kelar, bizga tinimsiz qo'l silkir edi...

Men kupedagi karavotning ustki qavatida edim. Barcha-barchasini sezib, tuydim. Bir-birimizni bundan so'ng ko'ra olmasligimizni-da bilganday edim. Shundagina ho'ngrab yig'lay boshladim. Ko'zga botgulik qorong'i tunni qoq yorib, o'ksib-o'ksib yig'lab yotdim. Apam bechora har zamon turib meni ovuntirmoqchi bo'lib yolvoradi:

– Yolg'iz emasmiz, o'g'lim! Qaragin, odamlar bor, yolg'iz emasmiz! – der edi g'amgin va parishon bir ahvolda.

Shu taxlit atam bilan ayrilishdik.

Qozog'istondan o'tib borayotganda poyezdga qozoqlar chiqdilar. Ular bizning ahvolimizni uqib, meni ovuntirib, yupatib borishardi.

Qaytadan Orol ko'li bo'ylab yo'l yurdik. Makonimizga qaytdik, og'ir va mashaqqatli turmushga qaytdik...

1937-yilning 1-sentabrini umr bo'yi unutmayman...

Besh kundan keyin, tunga soat ikkilar chamasida Maymoq stansiyasiga yetib keldik. Qarindoshlarimiz bizni kutib oldilar. Ular tayyorlagan aravada biz Shakarga qarab jo'nadik. Ata yurtimizga – Shakarimizga!

Shundan so'ng Shakarda yashab qoldik.

QASHQIRLARGA DUCH KELGANIM

Bolaligim xotiralari sahifalarida qashqirlarning ham alohida o'rne bor. Mening ko'rgan-kechirganlarim va ovuldoshlarimning boshidan kechgan voqealarni eshitsangiz, bizni umr bo'yi qashqirlar ichida yashagan deb o'ylaysiz. Ular doimo qo'y qo'ralariga, birda-yarim yolg'iz mol-holga og'iz solib, odamlarning tinchini buzishardi. Qashqirlar to'g'risidagi keksalar aytib bergan qanchadan-qancha hikoyalar esimda qolmagan. O'zim esa qashqirlarga ikki marta yuzma-yuz kelganman.

Apam kasalmand edi. Nasdan naslga o'tadigan keter revmatizmi degan xastalikdan azob chekardi. Oyoq-qo'llarining bo'g'inlari vaqti-vaqti bilan shishib ketar, zirqirab og'riri edi. Shu ahvoliga qaramasdan beva apam to'rt bolani boqib o'stirdi.

Kirovka degan ovuldan — rayon markazidan (*hozirgi Qorabura rayoni markazi Qiziladir ovuli — tarjimondan*) apamga buxgalterlik ishi topilganida, biz u kishi bilan birga o'sha yoqqa ko'chib ketdik. U yerda ukam, opam va men — uchovimiz maktabga qatnay boshladik. Urush boshlanishi bilan yanada kulfatli, og'ir zamon qo'sha-qo'sha keldi. Jon saqlamoq kundan kun og'irlashib, el qora qornini to'yg'azishni o'ylab, ertaga nima yeymiz degan dahshatli tashvishning domiga tushib qoldi. U davrning eng achchiq, eng ayanchli mavzusi-da, dramasi-da o'lim edi.

Jiyda Shakardan ancha uzoqda. Jambulga yaqin. Biz esa Shakarga Kirovkadagidan ikki hissa olislagan edik.

U paytdagi tartib bo'yicha apam ham boshqalar kabi mehnat haqiga kartoshka bilan don olar edi. Shu arzimas mehnat haqiga qaramay eplab-seplab bir uy bolani boqardi. To'rt boladan tashqari ammasi Gulsha apani boqmoq ham apamning bo'ynida edi. Gulsha apam ham kasalmand,

uning eri ham hukumat ishlarida ishlab yurib, 37-yildagi qatag'onning qurboniga aylangan edi.

Gulsha apa uzoq muddat turmush o'rtog'ini tirikdir, erta-indin biror tarafdin kelib qolar deb kutib yurdi. Umidli dunyoda. Biroq eri qaytmadi. Yolg'iz o'g'li Asfandiyor Janishev mendan bir necha yosh katta edi. Urush boshlanishi bilan frontga ketdi. Qaytib kelganida esa biz bilan birga yashadi.

Gulsha apa obdon aqlli va tadbirli ayol edi. Uy yumushlarini bajarib, bizni tarbiyalashda-da apamga ko'p ko'mak berdi. Oilamizda ko'p jon bo'lganligi uchun qornimiz oshga to'ygan emas. Shakardagi yaqinlarimiz bizga qarashib turishardi. Ular birgalashib biz uchun besh pud bug'doy to'plashgan. Buni olib kelish uchun apam kolxoz raisining ikki ot qo'shilgan aravasini so'rab olgandi.

Don solish uchun bo'sh qoplarni aravaga tashlab apam ikkovimiz yo'lga chiqdik. Talasdagi cho'ng oshuvdan tezroq o'tish uchun shoshilib ketib borardik. Kun botishga qarab, Shakarga boryapmiz. Men soliqchilik qilib yurganimda o'sha notanish va g'alati odamga duch kelgan yo'l orqali yurar edik. *(Bu haqda keyingi bo'limlarda so'z yuritiladi – tarjimon).*

Ha, bu o'sha yo'l edi.

Tong-azonda Jiydadan yo'lga otlandik. Kirovkaga yetganimizda kun choshgoh bo'lib qolgan. Otlarga yem berib, yo'lga tayyorlab, bir oz dam oldik-da, yana yo'lga chiqdik.

Qag' etgan qarg'a yo'q keng dalada ketib boryapmiz. Aravani men haydab borar edim. Apam orqada o'tirardi. Bir mahal yo'lga yaqin joyda turgan yolg'iz bo'z itga ko'zim tushdi. Uning quloqlari tippa-tik bo'lib, to'ppa-to'g'ri bizning aravani ko'zlab chopib kelardi.

– Apa, ana qaragin! Qarasang-chi, bir it bizga ergashib kelyapti, – dedim apamga.

Apam burilib bir oz qarab turdi-da:

– Bu itga o'xshamaydi – dedi g'alati ovozda.

Chingiz AYTMATOV

– It bo‘lmay nima u?

Bu so‘zni eshitib bizga ergashgan jondorga qarab turib qo‘rqqanim yo‘q, qaytaga hayron qolib:

– G‘alati, bu qashqir bu yerda bizni nega kutib turibdi ekan? – dedim.

Biz jondorning yonidan ildam o‘tib ketdik. U ko‘rinmay qoldi.

Bir ozdan keyin, besh-olti chaqirim yo‘l yurgach, yana o‘sha qashqirga yo‘liqdik. U yo‘lning biz ko‘rgan tarafida turardi.

Otlar qashqirning hidini olib, tipirchilar, bezovta yo‘rg‘alab, ildamlashgan edi. Biroq ko‘p o‘tmay shashtidan qaytib, charchashdi. Shu payt o‘sha qashqir kutilmaganda yana paydo bo‘lib, yo‘lning u tarafidan bu tarafga chopib o‘tar, zum o‘tmay ko‘zdan g‘oyib bo‘lib, yana ko‘rinib qolardi. U biz bilan bir qadar olis yo‘l yurib kelganiga bir cheti hayron bo‘lsam, bir cheti ishonmas edim.

Apam bo‘lsa, qo‘rqib qolgan, tanasini qaltiroq bosib, yig‘lar edi:

– Endi nima qilamiz? Bo‘rilar to‘planishib, to‘p-to‘p bo‘lib yuradi deyishadi. To‘dasi bilan bo‘lsa, odamlarga tajovuz qiladi deyдилar. Qay kunlarga qoldig-a?!

Menda esa qo‘rqish tuyg‘usi yo‘q edi. Bu qashqir to‘dasidan ayrilib, adashib qolgan bo‘lsa kerak, degan o‘yda qo‘rqmagandim.

Yarim tunda Shakarga yetdik. Bizni kutib olgan tuvgan-darimizga¹ qashqir haqida aytib berdik. Ular ham hayron bo‘lganlaricha hikoyamizni eshitishdi.

Donni tegirmonda torttirib, otlar dam olsin deya bir kun Shakarda qoldik. Qaytganimizda esa ikki kishi bizni Kirovkagacha kuzatib qo‘ydi. Bu qashqirlarga ilk bor yo‘liqishim edi.

¹Qarindoshlarimizga demoqchi

Ikkinchisi bo'lsa boshqacharoq, qo'rqinchliroq tarzda yuz bergan.

Endigi so'z shu haqda.

Urush yillari kolxozga belgili o'lchamda soliq rejasi solinar, uning amalga oshirilishi yuqoridan qattiq nazorat qilinar edi. Rejaga ko'ra don ekinlari: go'sht, kartoshka, jo'xori va qand lavlagini yig'ish jarayonida lozim bo'lgan miqdordagi mahsulot yig'ib-terib, davlatga topshirilishi kerak edi. Qarzdan boshi chiqmaydigan kolxozchilar kechani kecha, kunduzni kunduz demay ishlashardi.

O'shanda qirg'iz kolxozchilari qo'rqanlaridan cho'chqa boqishga majbur bo'ldilar. Bu yumush bir tarafdin g'oyat jirkanch, razil ish bo'lib, undan tashqari yerlik aholi uchun yemoq-yasoq sanalgan et edi. Qolaversa, musulmonchilik, ya'ni shariat qoidasiga ko'ra ham uni iste'mol etmoq makruh sanalib, harom hisoblangan. Mahalliy rahbarlar bu noqulay vaziyatdan qutulmoqning yo'lini izlashar edi. Ular bir o'q bilan ikki quyonni urib, davlat qo'ygan rejani bajarish bilan birga mahalliy xalqning diniy tuyg'ulariga qarshi bormay, e'tiqodlariga shak keltirmaslik uchun cho'chqa boqishni talaslik o'rislarga topshirishgan.

Shuytib, urush yillarida bu atrofda cho'chqani o'rislar boqishgan. Cho'chqa boqqan o'ris oilalari bizning Jiydada ham yashar edilar. Ular tegirmon yurgizish bilan birga cho'chqa ham asrardilar. Bular Rossiyadan atayin demobilizatsiya qilingan ikki oila edi. Cho'chqalarni esa tegirmondan chiqqan kepak bilan boqishardi.

Semirgan cho'chqalarni go'shtga topshirish fursati kelgan edi. Bu paytda bo'rdoqilarni Grozniy degan ovulga eltib, so'qimga topshirardilar. Temiryo'l stantsiyasiga yaqin bo'lgani uchunmi, biz cho'chqalarni o'sha Grozniyga olib borib topshirishni bo'ynimizga oldik. Grozniy esa Shakarga yaqin edi. Xo'jayinimiz shakarlik ekanimni bilganidanmi, bu ishni menga yukladi.

Chingiz AYTMATOV

– Qo‘sh ot qo‘shilgan aravani ol-da, cho‘chqalarni unga solib, Grozniyga yetkazib ber! – dedi u menga buyurib.

Grozniy yo‘lini besh qo‘lday bilganim uchun darrov rozi bo‘la qoldim. Bir otliq bilan yana bir yordamchini – ikki kishini menga qo‘shib berishdi. Hujjatlarga javobgar men edim. Apam kerakli qog‘ozlarni rasmiylashtirib, raisga qo‘l qo‘ydirib berdi. Bularni ham Grozniyga yetkazishim kerak edi.

Kunduz kuni yo‘lga chiqdik. Cho‘chqalarni aravaga solishayotganda chiyillagancha xur-xurlab, o‘zlarini duch kelgan tarafga ota boshlashdi. Ularni tushovlab, aravaga yukladilar-da, ustini somon bilan yopib qo‘yishdi. Otlar cho‘chqaning chiyillaganidan hurkib, qo‘lansa hididan bezovtalanib borishardi.

Yo‘ldoshlar maslahatlashib, kichik dovon orqali yurmoqlikka qaror qildik. Bu yo‘lda ikki oshuv bor edi. Biri Jambul bilan Talas aymog‘i o‘rtasidagi cho‘ng dovon. Bu oshuv orqali Shakar, Grozniy, Archagul yoki Ko‘ksoyga borilardi. Katta dovonning yo‘li kichik oshuvdan uzoqroq edi.

Bu ikki yo‘l bilan Talas aymog‘i bugungachayin sirtqi dunyo bilan bog‘lanib turadi. Biz asosan katta dovon orqali yurardik. Kichik oshuvni ko‘pchilik bilmasdi. Kichik dovonning yo‘li nochor bo‘lsa-da, qisqa bo‘lib, manzilga tezroq yetardik. Mendan yoshi ulug‘ ikki yo‘ldoshim bu cho‘chqalardan ertaroq qutulish uchun kichik dovon orqali yurishni lozim ko‘rishdi. Bu yo‘l orqali bundan keyin hech qachon yurmadim.

Hozir ham kichik oshuvning asfaltlangan yo‘lidan o‘tar ekanman, o‘sha, cho‘chqa topshirgani borganimni eslayveraman. Kichik oshuvgacha keng dala. Biz kechga yaqin dovonga yetdik. Yo‘l tor, tog‘ni oralab o‘tguncha rosa qiynaldik. Yo‘lning bir tomonida kattakon soy oqar, soyniing yoqasida esa shamol tegirmoni bor edi. Tegirmonni qiyalikdan to‘sib turuvchi Kompas o‘rnatilgan uy hali-hanuz yodimda.

Kech kirib qolgan. Tegirmonga yetganimizda uy darchasidan yorug' ko'rinib turardi. Qish kuni bo'lganidan sovqotib qolgandik. Kattalar:

– Tegirmonchinikida yotib qolaylik-da, – deyishdi.

Bu gap menga ma'qul kelib, ichimda xursand bo'ldim. Sovqotgan, yo'ning esa yarmini bosib o'tgan edik. Biroq uyga yetganimiz bilan chiroq o'chdi...

Kattalar kichiksan deb meni tegirmonchining uyiga jo'natishdi.

– Bor, borib eshigini qoq, qo'nib ketaylik deb ayt! – deyishdi.

Aravadan tushib, o'sha yolg'iz kulbaning yoniga borib, eshigini qoqdim. Sas-sado yo'q. Soyning sharqiragan ovozi esa tinmasdi. Bug'doy tortishayotgani uchun balki taqillatganimni eshitmagandir degan xayolga bordim. Eshik va derazani qattiq va tinimsiz qoqa boshladim.

Ichkaridan:

– Kimu? – degan erkakning ovozi chiqdi. Unga jo'r ohangda ayolning ham sasi eshitildi:

– Senga nima kerak?

– Biz yo'lovchimiz. Sizdan boshqa borar joyimiz yo'q. Bir oqshom tunaylik. Ertaga tong otmay ketamiz! – dedim yalingan ohangda.

– Sizlar kimsizlar?

Men Jiydadan Grozniyga borayotganimizni aytdim. Ichkaridagilar indamay qolishdi. Chiroq yana yonguniga qadar bir choy qaynagulik vaqt o'tdi. So'ngra g'iyqillab eshik ochildi. Uchovimiz ham uyga kirdik. Uyda odam ko'pdek edi. Biz kirgan bo'lmada ikki yigit o'tirardi. Tegirmonchi arpa bilan bug'doydan yasalgan bo'zaga jo'xori solayotgan edi. Qish kunlari erkaklar buni jo'xoribo'za deyishib, to'planib ichishardi. Ichkariga bir bola va ikki o'rta yoshli odamdan boshqa hech kim kirmaganini ko'rgach, ular bizdan xavfsiramay qo'yishdi.

Chingiz AYTMATOV

Ikki birdek menga:

— Bizga yaxshilab ayt-chi, ey bola! Qayoqdan kelayotib-sizlar va qayoqqa borayotibsizlar? — deya men tomon o'g'irilishdi.

Men esa barchasini oqizmay-tomizmay, mayda-chuydasigacha aytib berdim. Faqat cho'chqa topshirishga borayotganimizdan jirkanib, burunlarini jiyirishdi.

— Shu to'ng'izni aravada tashishga uyalmaysizlarmi? — deya og'izlariga kelgan shaloq so'zlarni aytib, bizni haqoratlay boshlashdi. Men bilan yurgan katta odamlar jon talvasasida o'zlarini himoya qilar edilar.

— Axir, bu bizning qo'limizda emas-ku? Boshliqning buyrug'iga qanday qilib bo'yin tovlaymiz? — deya o'zlarini oqlamoqchi bo'lishardi ular.

Ikki yigit bir oz insofga kelganday bo'lib so'z qotishdi:

— Yaxshi, bo'lar ish bo'libdi! Bo'zadan olinglar! Bu yoqqa kelganlaringni va bizni bu yerda ko'rganlaringni og'izlaringdan chiqara ko'rmanglar! Agar birovga bu uyda biz bilan birga bo'za ichganlaringni aytsanglar, o'zlaringdan ko'ringlar! Tushudinglarmi?! — deya ta'kidladi ular.

Bularning kimligini o'ylab, men shubhalana boshladim. Tog'u toshlar orasida yashirinib yurgan dezertirlar bo'lsa kerak deya o'yladim. Oqshomlari isinib olish uchun bo'za ichgani tegirmonga tushishsa kerak. Biz bularning ustiga kelib qolibmiz. Men o'zimni yomon seza boshladim. Bo'za ichgilari kelayotgan bo'lsa-da, men bilan birga kelganlarning yuragiga ham g'ulg'ula tushgan edi. Uy egasi ayoli bilan bizga ustma-ust bo'za uzatib, ertaroq ketishimizni o'tinib so'rashardi.

Shunday qilib, tegirmonchilikida qo'noq bo'lmay, ko'z ochirmas tun, qorong'isida yana yo'lga tushdik. Tashqari ichkaridan besh battar sovuq va qorong'i. Biroq boyagi ichib olgan bo'zamiz vujudimizni ilitib, korimizga yarardi.

Kichik dovondan bir amallab o'tdik. Undan keyin keng dala

yastanib yotardi. Ikki sherigim ham bu so'qmoqlarni mendan yaxshi bilishmas ekan. Grozniyga boradigan so'qmoqqa tushib olsak bas, marra bizniki. Nihoyat o'sha so'qmoqqa tushdik. Baxtga qarshi oy yorug' edi. Bir mahal yon tarafdan shivirlagan tovush chiqa boshladi. Ko'p o'tmay bir to'p qashqir bizga yetib kelganini ko'rdik. Otlar kishnagancha tipirchilab, hurkkancha bizni olib qochardi. Aravadagi cho'chqalar bo'lsa, kekirdagi yirtilgudek bo'lib, chiyillay boshlashdi. Qon iskagan qassoblar quvib kelayotganini otlar qanday oldindan sezib, bezovta bo'lganini anglay olmadim, Haytovur, otlar kishining xayolini qochirib kishnashar, jon talvasasida qochishardi. Cho'chqalarning chiyillaganini eshitgan bo'rilar borgan sari bizga yaqinlashardi.

Shu alfozda qashqirlar aravaning biqiniga kelib, biz bilan musobaqalashganday, arava bilan barobar chopib borishardi. Qo'rqqan otlar esa battar jon talvasasiga tushgan edi. Odamlar bor ovozi bilan otlarga jo'r bo'lib qiyqirishar, jilovni eplay olmay, tizginni arang tutib borardik. Men esa arava ag'darilib ketsa nima bo'ladi, deya jonim halqumimga kelgan. Bir payt qo'limga ilingan tayoqni oldim-da, alamimni cho'chqalardan olib, bor kuchim bilan ularning duch kelgan yeriga savalay boshladim. Urganim sari ular qichqirib, dunyoni boshlariga ko'tarib, chiyillashardi.

Bo'rilar bilan poyga, o'lim va hayot orasidagi kurash uzoq davom etdi. Tong oqarib kelardi. Xudoning bizga rahmi keldimi yoki rizqimiz butun ekanmi, harholda, bilmadim, ne sababdankim, bo'rilar bizga hujum qilmadi. Ular asta-sekin bizdan orqada qola boshladilar-u, oxiri umidlarini uzdilar. Ikki arava odamlari bilan omon qoldik...

Tong-saharda rus ovuli Grozniyga yetib keldik. Ko'chadan o'tib borar ekanmiz, quvonchimizga sherik bo'ladigan, o'pkamizni bosib qo'yadigan inson zoti yo'q edi. Katta musobaqadan g'alaba bilan qaytganday suyunishimizni aytmaysizmi? Otlar aravalarni arang sudrab borishardi. Jonga tekkan to'ng'izlarning ham uni o'chgandi.

Chingiz AYTMATOV

Men o'zimcha "Eng muhimi, tezda shu cho'chqalardan qutulish kerak. Bitta-yarimta qarindoshim ko'rib qolsa ishni xudo urdi deyaver, meni cho'chqa boqib yuribdi ekan deya butun Shakarga yoyib, sharmanda qiladi deya" hadiksirab borar edim.

Bir amallab cho'chqalarni Grozniyga topshirdik-da, men bilan birga kelgan ikki kishi aravalarni olib, Jiydaga qaytdi.

Men esa ildizim tomir otgan Shakarimga qarab, yayov yo'lga tushdim.

ODAM O'LDIRMOQNI KO'ZLAB...

Qirq uchinchi yilning fevralida oilamiz boshiga katta tashvish tushdi. O'shanda biz Jiydada yarmi nurab tushgan, guvalakdan qurilgan, avval klub bo'lgan eski joyda yashar edik. O'zimizning molxonamiz bo'lmaganidan qishda bittagina sigirimizni raisning ruxsati bilan kolxozning qo'rasida saqlar edik. «Sukra» otliq sigirimiz butun oilamizni boqardi. Uni men hech qachon unuta olmayman. Bu govmishni g'unajin paytida, endi urush boshlangan kezlari qarindoshlarimiz enchi qilib bergan edilar. Shu sigir bo'lmasa, to'rt birdek go'dak shak-shubhasiz och qolardik.

Yoz kelishini sabrsizlik bilan kutardik. Yozga yaqin Sukra buzoqlardi. Qishda esa kun bo'yi kolxozning og'ilxonasining yonidan jilmay yolg'iz umid-tilagamiz bo'lgan Sukramizni suvu yem-xashagidan xabar olib, qo'ni-qo'shnilarimizdan ortib qolgan ovqatmi yoki qotgan noni bo'lsa so'rab olib, unga yem qilib berar edik. Uyda esa yoz kelishi bilan og'zimizga oq tegib, qatig'u kelagay, o'g'uzu qaymoqqa to'yamiz deya xayol surib, g'ala-g'ovur qilib o'tirardik.

O'sha kuni tong-saharda turib kolxoz og'ilidagi sigirimizga qarab kelish uchun borgan sovuq qish kuni hecham esimdan chiqmaydi. Hammadan burun og'ilga men kelardim. Podachilardan birortasi bu mahalda, hatto, uyg'onmas ham edi.

Bir kuni odatdagiday tongda turib kelsam, sigirimiz joyida yo'q, bog'log'lik joyi bo'm-bo'sh. Shoxiga bog'langan arqon kiraverishda chuvalanib yotardi. Og'ilga kiriladigan eshikning yarmi siniq bo'lsa-da, kecha-kunduz qulflog'lik turardi. Oqshomlari sigirlar boshbog'isidan bo'shalib ketib, tashqariga chiqqa olmay, og'ilning biror burchagiga borib turishar edi. Men ham dastlab shunday deb o'yladim. Ipidan bo'shab ketib, biror burchakda turgandir deya xayol qildim. Og'ilni bir necha marta qarab chiqib, sigirni topa olmadim. Shundan so'ng og'ilning boshqa bir burchagidagi somon uyumi ustida yotgan qorovul tomon yugurdim. Sigirning qayda ekanligiga u lab-lunjini yig'ishtirib, javob bera olmadi.

– Balki bo'shalib, tashqariga chiqib ketgandir, – dedi u g'uldirab mujmal ohangda.

Bu javobni eshitishim bilan ichim tuz qo'yganday achishib ketdi. Sigir yurishi mumkin bo'lgan barcha so'qmoqlarni yelib-yugurib qarab chiqdim. Mollar to'planadigan va har kuni borib suv ichadigan joylarni, past-baland tepalik va soyliklarni qoldirmay izladim. Axir, qanday qilib yakka-yolg'iz mol tong-saharda og'ildan chiqib ketishi mumkin?

Boshimizga katta balo kelganini tushundim. Sigirning o'g'irlangani aniq edi. Apamga xabar berish uchun uy tomon chopdim. O'sha damda yorug' dunyo biz uchun qora tunga aylandi. Molimizning o'g'irlanganiga shak-shubha yo'q edi. Yurakni chiqarib yuboradigan bunday sovuq xabarni tong otmay eshitgan apam, ukalarim nima qilishlarini bilmay mungli yig'lashib o'tirishardi. Hech ko'pirtirmay aytganda, bu noxush voqea biz uchun kunimiz botganday, umrimiz so'ngiga yetganday og'ir fojia bo'ldi.

Biri biridan kichik, atak-chechak o'sayotgan to'rt nafar norasida go'dak, holdan toyib astoydil qiynalgan apamiz, eridan ayrilib qolib, bizni qora tortib kelgan xolamiz Gulsha apaning taqdiri endi ne kechadi?

Erlari frontga ketgan qo'shni ayollar to'planishib kelib,

Chingiz AYTMATOV

bizga qo'shilib, ho'ngrab-ho'ngrab, uvvos solib yig'lay boshladilar. Nolalari xudoga yetadiganday bor ovozda qarg'anib yig'lardilar. O'sha voqeani, o'sha paytdagi achchiq va dardli yig'i saslarini eslaganimda hozir ham alamdand tomog'im bo'g'ilib qoladi. Oilaning eng kattasi bo'lganimdan, kichiklarga g'amxo'rlik qilish, ularni yomon ko'zlardan asrab, qanotliga qoqtirmay, tumshuqliga cho'qitmay o'stirish mening zimmamda edi. Shularni o'ylab, ahvolni ko'rib turib, qanday bo'lmasin, o'g'rini topib, lozim bo'lsa o'ldirish kerak degan fikrga keldim.

Shu o'yda traktor haydovchi qo'shnimiz Temirbekning oldiga bordim. (90-yillari Talasdagi tuvganlardan uning vafot etganini eshitdim). Temirbek ikkimiz yaqin edik, o'tgan kuzdagi shudgorlash chog'ida unga yordamchi, ya'ni suv quyuvchi bo'lib, yonida yurganman. U kezda Temirbek ovulimizdagi yagona traktorchi edi. Traktorchi kabi traktor ham ovulda bitta edi. O'sha paytda butun boshli bir ovulning ko'z tikkan narsasi shu traktor edi. Angorning u boshidan bu boshiga borgancha traktor radiatorining suvi qaynab ketar, radiatorni suv bilan to'ldirib turish mening vazifam edi. Suvni olisdan chelaklarda tashib kelardim. Ishim og'ir edi. Temirbek ikkimizga bu vazifa ishonilib topshirilganidan, shy tufayli tirikchiligimiz o'tayotganidan jonin-botin, bor kuchimizni ayamay ishlardik. Buning ustiga u bron bilan frontdan olib qolingani edi. Ovuldagi ekin dalalari haydovsiz, traktor egasiz qolmasligi uchun kattalar uni jangudaladan asrab qolganidilar.

O'sha tongda achchiq va alam ustida qonim qaynab, sabrim to'lib-toshib, boshimni qayerga urarimni bilmay, Temirbekning uyiga jo'nadim. Bordim-da, hol-ahvol so'rashishga ham toqat qilmay miltig'ini so'radim.

Men uning ovchilik miltig'i borligini bilar edim. Gohida boshqa ovulning dalalarini haydayotganimizda yoqilg'i tugab,

bekorchi bo'lib qolardik. Shunda u miltig'ini olib chiqar, duch kelgan narsalarni otib, ermak qilardik.

Uyiga kirib borsam, u betob bo'lib yotgan ekan. Tanasi otashdek yonib, ahvoli og'ir edi. Sigirimizni o'g'irlatganimizni u ham eshitgan ekan.

Mening avzoyimga qarab turib, darrov:

– Ol, olaver! Ana u yerda, shiftda osig'liq. O'q xaltasi ham yonida. Og'rib, buytib yotib qolmasam, u ablahni topib, o'zim otib tashlar edim! – dedi tishlarini g'ijirlatib.

O'q xaltani yelkamga osgancha, miltiqning belidan tutib, yuragimda o'ch olmoq hissi junbushga kelib, Temirbeknikidan chiqdim. Butun fikru zikrimni o'ch olish tuyg'usi egallab olgan. Qanday qilib bo'lsa-da, o'g'rilar ni topgan joyda ayovsiz jazolayman degan o'y-xayol bilan boshim oqqan tomonga ketib borar edim.

O'g'rilar sigirni yetaklab, baribir uzoqqa keta olmaydilar degan umid meni ruhlantirib turardi. Axir, sigir degan jonivor ot kabi ildam yura olmaydi-da. Ular kunduz kuni odamlar ko'ziga ko'rinmaslik uchun biror pana-pastqam joyda qorong'i tushishini kutib, yashirinib yotgandir degan o'йда past-baland yerlarni birma-bir tintib chiqdim. Bunday paytda kishining xayolini turli-xil fikrlar chulg'aydi. Molni bir pana joyda so'yishib, tun cho'kkancha dam olaylik deya uxlab yotishgandir deb ham xayol qildim. O'g'rilar o'zlaricha sigiri o'g'irlangan uyda izlaridan quvib boradigan er yetgan kishi yo'qligini ham hisobga olgan bo'lsalar kerak. Bu fikr yanada qahrimni keltirib, nafratimni qo'zg'ardi.

Qo'limdagi miltiqni shiqirlatib, uni otishga hozirlab, qarshimdagi o'g'ri nechta bo'lsa ham otib o'ldiraman deb borardim.

Dala-dashtni, tog'u toshlarni, pastu baland joylarni qoldirmay qidirib chiqdim. Boshi aylangan Majnundek oxiri qayoqqa borarimni bilmay, duch kelgan tarafga qarab naridan-beri borib kelaverdim. Havo sovuq bo'lganiga qaramay

Chingiz AYTMATOV

sovqotmasdim. Tanamdagi sovuqni ichimdagi g'azabim ilitganday bo'lardi. Tomog'im quruqshab, qattiq qordan olib yeb qo'yaman. Ukam ikkimiz alishtirib kiyadigan ko'zga bosar yagona etigimni ham bu yo'lda ayamadim. Orqa-oldimga qaramay qor kechgancha halloslab yugurardim.

Bir mahali etigim chok-chokidan so'kilib, qishning qisqa kuni tugay boshladi. Inson zotini topa olmadim. Bu yopyg' olamda faqat men borday, bu ko'hna dunyoda bir sho'rpe-shana yolg'iz mendek ahvolim zabun edi. Tevarak-atrof sokin. Cheksiz uzoqlarga cho'zilib yotgan jonsiz tog'lar, dovdaraxtsiz tep-tekis dalalar mo'ltirab turgandek edi. Yaqin orada o'g'rining-da, sigirning-da sadosi yo'q. Yo'q, yo'q! Iz ham yo'q! Uzog'u yaqinda hech narsa yo'q.

Shunda mening kallamga o'g'rilar govmishni olib, bu taraflarga kelmay to'ppa-to'g'ri Jambulga qarab yo'lga tushishgan degan fikr keldi. U yoqda molni so'yib, etini sotishadi. Bu o'y fig'onimni falakka chiqardi. Chindan ham shunday bo'lmasa edi... Ko'p o'ylanib o'tirmay, shaharni ko'zlab, yo'lga tushdim. Tun bo'yi tinmay yugursamgina Jambulga yetishim mumkin. Men bunga ham rozi edim.

Sherligim tutib, tavakkal qilib tog' etagidagi katta yo'lga – shahar yo'lga tushdim. Shaharda qiladigan ishimni o'ylay boshladim. Bozorni axtaraman, bor go'sht do'konlarini tintib, sigirimning terisini topaman. Sigirni topsam bas, o'g'rining kimligini ko'zlaridan bilaman. Ularnimi?! Ularni qassobxonaning orqasidan chiqib turib, otib tashlayman.

Qo'limdagi miltig'imni mahkam ushlagancha, shitob bilan ketib borar edim.

Yugurib borarkanman, o'y bosganidan tekis maydonda kelayotgan eshakli oqsoqolni ham payqamay qolibman. Uning boshida eskiligidan rangi o'ngib ketgan teri telpak, g'aribona bir ko'rinishda edi. Bu miskin chol soqoli selkillab to'rt oyog'i yerga tegib-tegmay pildirab kelayotgan eshakni minib olgan. U kimsasiz bir mozordan chiqqandek edi. Ikkovimizning yo'limiz bir chiqib qoldi. Xayolim qochganidan salomni ham

unutibman. Qayg'uga cho'mganimdan bo'lsa kerak. Yonidan o'tib borarkanman, qariya menga o'girildi.

— To'xtagin, o'g'lim! Birovni o'ldirgani boryapsanmi?! — deya so'radi.

— Ha! — dedim uning bu so'rog'iga mijja qoqmay javob berar ekanman. — Ha, o'ldiraman!

Nihoyat, biz yuzma-yuz keldik. Tik qarashdik. Shunda men uning yuzidagi kishini o'ziga tortuvchi bir iliqlikni, mehrni payqadim-da, o'sha ishonch to'la ko'zlari bilan menga qaraganida, uning ochiq chehrasidagi ma'noni angladim. U boshini egib, menga salom berib, dedi:

— Unday bo'lsa shoshma! Mening so'zimni tingla, bir oz o'zingni bosib ol! Nima uchun o'ldirmoqchisan?

— Tug'ishiga yaqin qolgan bo'g'oz sigirimizni o'g'irlab ketishdi. To'rt tuqqanmiz. Eng kattasi menman. Apam bilan xolam bo'lsa kasalmand...

— Ha, shundaymi? Yomon bo'libdi, juda yomon bo'libdi! Biroq sen meni tingla! O'ch yomon narsa. Qarg'ish tekkan o'g'ri bo'lsa-da, uni o'ldirishni o'ylamasliging kerak!

Qahrim bosilmagan. Baqirib yuborayin deymanu, o'zimni zo'rg'a bosib turibman.

— Seni tushunib turibman, bolam, — deb so'zida davom etdi oqsoqol. — Haqiqatan ham ahvollaring og'ir ekan. Mendek keksa odamning so'zlarini uqib ol, o'ldirma! Bunday narsani o'ylab ham ko'rma! Uyingga qayt! Bu hayotda shunday nomardlikka borganlar so'zsiz jazosini oladilar! So'zimga ishon! Jazo har doim u bilan birga yuradi. Qo'sha yotib, qo'sha turadi. Biroq sen uyingga qaytib, o'g'rilarni o'ldirishni qayta o'ylamasanggina oxir-oqibat baxtli-saodatli bo'lasan. Baxtning o'zi seni izlab topib keladi. Sen meni shunchaki gapiryapti deb o'ylama. Vaqti-soati kelib mening bu so'zlarimni eslab, to'g'ri aytganimni tushunib yetasan. Uyingga qayt, qarog'im! Apangga borib mening so'zlarimni ayt. Men ham yo'limda davom etayin. Senga birov har qanday

Chingiz AYTMATOV

yomonlik qilsa-da, sen uni o'ldirishni hech qachon o'ylama!

Oqsoqolning so'zlarini angladim-da, indamay orqamga qaytdim. Qariya esa avvalgiday eshagini yo'l tomon burib, xalalagancha jo'nab ketdi.

Qag' etgan qarg'a, quq degan quzg'un uchmas biydek dashtda shalpayib, bo'shshib, boyagi o'yu xayollarim parchalanib, noilojlikdan miltig'imni orqamga osib oldim. Endi uning menga keragi yo'q edi.

Quyosh esa qizarib, haydalmagan, oppoq qor to'shalib yotgan dalalar adog'ida ohista botib borardi. Ne qilarimni bilmay, astoydil baqirib, o'kirib-o'kirib yig'ladim. Yig'idan butun vujudim titrardi. Achchiq ko'zyoshiga betimni yuvib, tanam og'irlik qilganday, oyog'imni zo'rg'a ko'tarib bosardim. Etigim yaroqsiz holga kelib qolgan, oyog'imga ilashib borardi. Qarshimda kattakon gulxan yonayotgandek bo'lib ko'rinar, hayqirganча, shu yoqqa qarab gapirib kelardim...

Egnimda o'g'ridan o'ch olib, uni otib tashlash uchun olib chiqqan zildek og'ir miltiq osilganча sollarib kelardi...

QORA QOG'OZLAR

Shakar — ko'kka yelka tiragan Manas tog'larining etagidagi yoyiqlarda joylashgan. Ovulni oppoq qor va ko'm-ko'k muzlar qoplagan qoyalar halqasi qurshagan.

Atamning ypyg'-aymog'i shu — Shakarda tug'ilib, shu yerda umr kechirganlar. Qarindosh-urug'larimiz ko'p edi. Ular bilan barobar biz ham ko'p yaxshi-yomon kunlarni boshimizdan o'tkazdik. Urug'-aymog'imizning yordami bilan yaratgan peshonamizga yozgan kunimizni ko'rib, nasibamizni terib yedik. Urush yillarida ularning yonida bo'ldik. Shakardagi maktabda o'qidim. Atamning bir tug'ishgan ejesi Qoraqiz apamning uyida turdik.

1942—43-yilning qishi, urush azobi barchani birdek ezib, ajal urug'ini ufurib turgan og'ir kunlar. Bu davrning azob-uqubatini men bilan tengdosh bolalar ko'p chekdilar.

Ovuldagi ishga yaroqli, kuch-quvvati bor erkaklarning bari urushga ketgan. Ejemning kuyovi Do'sali jezda ham urushga ketsa-da, frontga bormay, mehnat koloniyasida ishlab yurgan. Qo'lidan ish kelgan erkak zoti borki, barchasi askarga olinib, ular qurol-yarog' zavodlari yoki shu kabi og'ir bir tarmoqda ishlashar, yoki bo'lmasa yer kovlab, okop qazishgan. Ayrımlari esa tosh va tuproq tashimoq uchun Magnitogorsk degan shaharga ketishgan. Mehnat batalonining ahvoli og'ir bo'lgan. Yotar joyning tayini yo'q, og'izlariga (qo'lga) ilinganni yeb kun kechirishgan.

Gapni cho'zmasdan meni qanday qilib kolxozga soliqchi – finagent qilishgani hikoyasini boshlayin. Soliqchi bo'lishdan avval kolxozda olti oy xat yozuvchilik ham qilganman. Bu mustaqil hayotga qadam qo'yish yo'lidagi atak-chechak tajribalarim edi. Qanday qilib meni kolxozga sekretar-xatchi qilib olishdi?

U paytda kolxoz raisi shu yerlik cho'pon Turdubayev Qobilbek edi. Rahmatli dunyodan o'tib ketdi.

O'shandayoq u oltmishdan oshib qolgandi. Obdan mehnatkash Qobilbek akani qo'y boqib yurgan yeridan chaqirtirib, raislik kursisiga o'tkazib qo'yishgan. U o'z otasining otini ilk to'rt harfini «Turd» deb yoza olar, imzo chekishi lozim bo'lsa, o'sha to'rt harfni yozib qo'l qo'yardi. Unga rus tilini bilgan, xat savodi chiqqan bir yordamchi kerak edi.

Men esa o'z vaqtida Frunze, so'ngra Moskvada o'qib, xat-savodim chiqib qolgan, rus tilini ham binoyidek bilaman. Bu imkoniyatlarim meni o'sha kezning nigohi bilan hiyla bilimlilarning safiga qo'shar edi.

Qobilbek aka hech kimdan maslahat so'rab o'tirmay darrov meni yoniga chaqirtirdi. Uyga kelishdimi yoki maktabdan olib ketishdimi, bunisi esimdan chiqibdi. Haytovur qidirib kelgan chopar meni otiga mingashtirib:

– Seni rais chaqiryapti! – deya Qobilbek akaning oldiga ergashtirib bordi.

Chingiz AYTMATOV

Rais menga sinchkovlik bilan qarab, turib:

– Xo‘-o‘sh, qani ayt-chi, necha yoshdasan? – deya so‘radi.

– O‘n to‘rt yoshdaman – deb javob berdim.

– E-e, barakalla! O‘n to‘rt yoshimda men bir qo‘ra qo‘yni eplab edim. Savoding chiqqanmi?

– Ha, chiqqan.

– Unda, bo‘ldi! Kolxozga xat-savodli, odobli kimdir kerak. Sendan boshqa hech kim yo‘q. Bori frontga ketgan. Bizga bo‘lsa, ishga yaramaydigan qari-qartanglar bilan bola-baqralargina qoldi. Xayriyatki, sen bor ekansan. O‘qishingni tashlab, ovulga xatchi bo‘lasan. Ma‘qulmi?

U paytlarda bunday takliflarga tezda javob berilmas edi. Aytishlari bilanoq rozilik bermasdan, talashib-tortishib, bir oz tortingandek bo‘lib, so‘ngra “O‘ylab ko‘rib ertaga javob berayin” deyish kerak edi.

Biz bo‘lsa, ulug‘lar, Qobilbek aka kabi insonlar har doim to‘g‘ri so‘zlaydi, ularning aytganidan chiqmaslik kerak degan o‘y bilan ulg‘ayganmiz.

– Yaxshi, ishlab ko‘rayin-chi. Balki eplab ketarman, – dedim.

Uyga kelishim bilan Qorako‘z apam bu ishdan xabari bo‘lsa kerak, darrov meni so‘roqqa tutdi:

– Ha, bolam. Ular nima deyishdi?

– Ovulga sekretar bo‘l dedi, men ma‘qul dedim.

– Unday bo‘lsa, ishingni darrov boshla! – dedi ammam. Ichida men bilan faxrlanayotgan edi shekilli.

Tug‘ishgan akasi – atam repressiyada otilib, siyosatning yoziqsiz qurboni bo‘lgan. Shundan so‘ng “xalq dushmanining” oilasi deya bizni gunohkor sanovchilar ham ko‘p edi. Shunday bir sharoitda o‘n to‘rt yoshdagi o‘spirinning kolxozning muhim lavozimlaridan biriga o‘tirishi g‘ururlanadigan bir voqea edi. O‘sha zamon shart-sharoiti ham shuni taqozo etardi.

Kolxozdagi xatchilik vazifasi mening hayot tarzimni o‘zgartirib yubordi. Bu vazifani bajarish mening aqlimga ham

kelmagan, tayyorgarligu tajribam ham yo'q edi. Qismatdan qochib qutulib bo'lmaydi. Bir zumda og'ir hayot bilan yuzma-yuz kelgan edim. Men xalq tirikchiligiga oid barcha statistik hisob-kitoblarni to'plab ularni yozib, yilnomalarni, hisobotlarni, protokollarni, aktlarni tuzib chiqishim kerak edi. Hisob-kitob, chorvachilik va dalachilik ishlarining barchasi ovul kengashi tomondan boshqarilardi. Yuqorining har bir ko'rsatmalari xalqning barcha talab-ehiyojlarini yosh boshim bilan yozib, tayyorlab, kerakli joyga yetkazish mening asosiy vazifam edi.

Ovuldagi mashaqqatli tashvish — soliq yig'ish ham menga yuklangan edi.

Avgustning oxiri — sentabrning boshida kolxozning mendan oldingi soliq yig'uvchisi ham askarlikka olinib, frontga jo'nadi. U urushdan qaytib kelmadi, o'qqa uchib ketdi...

Shunda ovulga bir yarador askar keldi. U hasa bilan yurar edi. O'shani xatchi qilib olishdi. Yura olmagani bilan baribir maydon ko'rgan, xat tanirdi. U kishiga xatchilikni topshirdim. Men esa soliq yig'uvchilik vazifasini davom ettirdim.

Bu soliq deganimiz o'sha davrning eng mashmashali, eng muhim tadbiri — urush solig'i edi. Bu bilan davlatning xarajati qoplanardi. Har bir dov-daraxt ekin-tikin uchun soliq to'lamoqqa majbursan, boshqa yo'l yo'q! Beva-bechoralar, nochor va qashshoq kishilar og'ir ahvollarini qanchalik bayon etmasinlar, hech biri bu soliqdan qutula olmas edi. Soliqning miqdori rasmiy tartibda yuqoridan belgilanardi. Men uni xalqdan yig'ib, qaytadan hisob-kitob qilib soliq boshqarmasiga o'tkazar edim. Soliqqa doir barcha hujjatlarni tayyorlab, pulni olganimda o'sha kishiga qo'l qo'ydirib, ikki nusxada tilxat yozar edim. Tilxatning birinchi nusxasini soliq idorasiga, ikkinchi nusxasini o'zimning jurnalimga tikib qo'yar edim.

Yangi ishga anchagacha ko'nika olmay yurdim. Borgan yeringda pul talab qilib, «bersang-chi, ber» deb qistaysan...

O'sha paytda moliyaviy inqiroz kuchayib, pulning qadsiz-

Chingiz AYTMATOV

lanishi ortib borardi. Qog'oz pullar cho'ntagimga sig'mas, gohida shamolda uchib ketib, boshimni qotirardi. Bir pud jo'xorining bahosi 3000 rubl. Kolxozda ishlagan bir ishchining oylik maoshi esa 50 rubl edi.

Odamlar topganini, qo'lga ilingan narsani bozorga olib borib pullardi. Iloji yo'qlar eng so'nggi molini ham sotardi. Urush solig'idan qutulish uchun el yegulik kartoshkayu jo'xorisini bozorga eltib sotar, uning yaramas aqchasini olib kelib, mening oldimga uloqtirardi. Bizning aymoqda qo'lga ilinadigan neki bor, Jambuldagi Avliyoata bozorida sotilib ketdi.

Endilikda o'ylab ko'rsam, o'sha paytlarda xalqning sabri-toqati va fidokorligi haqiqatan yuksak ekan. Bugungi odamlar o'shanday qiyinchiliklarga duch kelsalar, o'sha daqiqada ko'chaga chiqib, bor arz-dodlarini aytib solib, xalq orasida olomonchilik hukm suradi. O'sha urush mahalida odamlar ochlikdan tishining kirini so'rib o'tirishsa-da, o'sha majburiy urush solig'ini to'lamaslik ularning xayoliga ham kelmas edi. Yo'q, bugungi kunda hech kim unday qiyinchiliklarga chidamaydi. U paytda odamlar bunday qilmoqni aqllariga ham sig'dirmas edilar.

Bu xizmat men uchun aql bovar qilmas saboq edi.

Hayotni kuzatar ekanman, har bir uydagi qiyinchilikni, odamlarning sabru chidamini o'z ko'zim bilan ko'rib, barchasiga guvoh bo'ldim. O'zim ham shunday og'ir sharoitda yashadim. Ular to'layotgan aqchalarni olmoq men uchun borib turgan azob edi. Yo'q, men buni pul ekanligini, moddiy bir boylik ekanligini o'ylagan emasman. Faqat bir narsani, peshona teri, oqko'ngil, pokiza niyat bilan topilgan pul bo'lgani uchun u ulug', qutlug' bir narsalar uchun sarf etilishi kerak deb o'ylar edim.

Kun bo'yi shu mashaqqatli yumush bilan mashg'ul bo'lib, kerosin chiroq yoqilgandagina oqshom bo'lganligini his etar edim.

Qoraqiz apam men uchun jonini jabborga berardi. Shakar bilan Archalida o'sha kezda yetti yuzga yaqin xonadon yashar edi. Hozir balki mingdan oshgandir. Men bu ikki qishloqda bog'lam-bog'lam pullarni sanab olib, hujjatlarni to'ldirardim. Bu qog'oz pullarni sanab, saralab taxlash kerak edi. To'plagan pullarimni o'z vaqtida tiyinigacha sanab, bankga olib borib topshirardim. Bank esa rayon markazida edi. Bankaga pul hujjatlarimni ham topshirar edim. Ular menga soliqni topshirganligim haqida hujjat-kvitantsiya berishardi.

Rayonda moliya bo'limi bo'lardi. Men to'g'ridan to'g'ri o'sha bo'limga bo'ysunardim. Bir necha xonasidan bo'lak hech narsasi yo'q pastqam binoda o'tiramiz. Transport yo'qligidan xodimlar bir ovuldan ikkinchi ovulga ot bilan yuradilar. Kolxozning otlari urush yillari oriqlab, ko'taram bo'lib qolgan. O'sha zamonning og'ir sharoiti otlar hayotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan, ular ozib-to'zib ketgan, yem nari tursin, tuzuk-quruq xas-xashak ham yetishmas edi.

Men o'z ishingga astoydil kirishib, bora-bora ko'nikib ketdim. Aqchalar bilan hujjatlarni sanab, ertangi kunga hozirlik ko'rar edim. Tong-saharda turib, yo'lga tushardim. Boshliqlarimning esa og'zigacha aqchaga to'la bo'lib egardan tushmas edilar. Tushgacha rayon markaziga yetib borayin deb oshiqaman. Ulgurmasam hisob-kitob qilguncha kech kirib, orqaga qaytmog'im qiyin bo'lardi. Uyga yeta olmay yo'lda tunab qolgan vaqtlarim ham ko'p bo'lgan. Bunday paytlari ertasi kuni arang Shakarga yetib kelardim. Biroq, eng muhimi mablag'ni o'z vaqtida bankaga topshirish edi.

Odatdagidek bir kuni yo'lga chiqdim. Qoraqiz apam meni kuzatib, safar xaltamga yarimta ko'moch solib qo'ydi. Qishning qisqa kuni edi. Havo u qadar sovuq emas, ustimda yengi uzun askar paltosi. U juda uzun va beso'naqay edi. Uzunligidan otning egarini ham berkitar, qo'lim esa ko'rinmasdi. Oyog'imda etik, boshimda telpak. Xurjunda og'zi bog'liq xaltalar to'la pullar...